


M. NORQO‘ZIYEV

MUTAXASSISLIK

**AN‘ANAVIY XONANDALIK:
ORIFXON HOTAMOVNING
BASTAKORLIK IJODI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

MURODJON NORQO‘ZIYEV

MUTAXASSISLIK

An‘anaviy xonandalik:

Orifxon Hotamovning bastakorlik ijodi

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etildi*

Ta‘lim yo‘nalishi – 5150600 (An‘anaviy xonandalik)

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2018**

UO'K: 78(575.1)(092)

KBK: 85.31g(50')

Taqrizchilar: **prof. Otanazar Matyoqubov;**
R. Glier nomidagi RIMAL "An'anviy ijrochilik"
bo'limi mudiri **Rahmatilla Nurillayev**

N 79 Mutaxassislik. An'anaviy xonandalik: Orifxon Hotamovning bastakorlik ijodi: O'quv qo'llanma / M.Norqo'ziyev; –
T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 176 b.

Elimizning buyuk ustoz-san'atkori, O'zbekiston Xalq hofizi, bastakor Orifxon Hotamov o'zbek milliy professional musiqa san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ijodkor bastalagan ashulalar yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini boyitishda muhim o'rin tutadi, deb o'ylaymiz.

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida xrestomatiya shaklida mutaxassislik fanidan foydalanishlari mumkin.

The greatest artist of our nation, kompozitor Orifxon Xotamov's role is huge in national professional music. We hope that, his works influence well in youths developing.

Given book is intended for student of the high educational institutions.

Роль Орифхана Хатамова, Народного хафиза Республики Узбекистан, как композитора в национальной профессиональной музыке огромен. Мы надеемся, что, его творчество влияют на духовность молодёжи.

Данная книга предназначена для студентов высших учебных заведений.



UO'K: 78(575.1)(092)
KBK: 85.31g(50')ya73

ISBN 978-9943-13-745-5

© M. Norqo'ziyev, 2018

© "IQTISOD-MOLIYA", 2018



O'ZBEKISTON XALQ XOFIZI ORIFXON XOTAMOV

KIRISH

San'at inson tafakkurining eng buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Agar san'at turlari: tasviriy, amaliy bezak san'ati, me'morlik, badiiy adabiyot, raqs, kabi turlariga bo'linishini nazarda tutsak, yuqoridagi hukm yana ham kuchliroq ahamiyat kasb etadi. Musiqa, xonandalik shu turlar qatorida munosib o'ringa ega. Bularning barchasini inson kashf etgan, inson vujudga keltirgan. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zga shunday sharh beriladi: «San'at – ish, mehnat mahorat, kasb-hunar» Lug'atdagi ta'rifda «san'at»ning mohiyat ma'nosi aks etgan. Haqiqatdan ham, san'at asarining yaratilishini mehnatsiz, ayniqsa, mahoratsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki aynan mahorat bilan yaratilgan san'at asari u bilan tanishgan odamning ruhiyati, kayfiyati, xatti-harakatlarida o'zgarish yaratish qudratiga ega bo'ladi. Xonandalik ham san'atning bir turidir. Turi bo'lganda ham san'atning eng murakkab turlaridan hisoblanadi. Chunki unda musiqaning ohangdorligi, sozandaning qalbdagi pardalarni tebratmasdan, betakror yaratgan musiqani aniq ifodalay olishi, xonanda ovozidagi tiniqlik va joziba, ashula yoki qo'shiq aytayotgan shaxs tomonidan matnning musiqa bilan uyg'unligi va ushbu so'zlarni ijrochi tomonidan qay darajada his etganligi, hatto ijro paytidagi yuz, qo'l harakatlari bir murakkab jismning tana a'zolari kabi mukammal darajada mutanosib bo'lmog'i lozim. San'atning bu turida shu paytgacha fanga ma'lum bo'lmagan jihatlari bor. Xususan, ashulachi ashula aytayotgan paytda o'zidan ko'z ilg'amas to'lqinlar doirasini atrofga tarqatadi. Bu to'lqinlar tinglovchilar auditoriyasiga ta'sir etadi va aks sado bilan xonandaga qaytadi. Tajribamizda shunday vaziyat bizga aniqki, agar ana shu ikki to'lqin bir-biriga mos kelsa, va bir-birini quvvatlasa, aytilayotgan ashulaning san'at sifatidagi darajasi yanada yuqoriga ko'tariladi. Zero, eng zamonaviy ovoz qurilmalari, asboblari orqali ham haligacha ashulachilik san'atiga xos bu holat aniqlangan emas. Hayotda esa mashhur xonandalar ana shunday iliq vaziyatda o'tgan ijroni «Alloh fayz berdi», yoki «konsert fayzli o'tdi», deb aytadilar. Qo'lingizdagi qo'llanmani o'nlab yillar davomida musiqa, xonandalik, bastakorlik yo'lida egallagan tajribam

yuzasidan O'zbekiston xalq xofizi, jozibali ovoz sohibi, yuzlab ashula va musiqalar muallifi, ajoyib sozanda, benazir ustoz hamda orif olim Orifxon Hotamov xonandalik misolida fikr yuritamiz.

Avvalo yurtimizda qadim zamonlardan xalqimiz madaniy hayotining tarkibiy qismi hisoblangan musiqa tarixi yuzasidan bir oz fikr yuritishni ma'qul ko'rdim. O'zbek musiqa san'ati juda qadim zamonlarda shakllangan. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida, xususan, O'rta Osiyoda xalqlar nishonlaydigan bayramlar haqida ma'lumot beradi. Beruniy ma'lumotlarida Navro'z, Ramush og'am, Mohirj, Nikh og'am, Amehvora, Bobohvora, Nim sarda, Bod omkom kabi o'ndan ortiq tantanalar tilga olinadi. Tabiiyki, bayram hech qachon raqs¹ o'yinlarsiz, musobaqalarsiz, mazali taomlarsiz, shu bilan birga musiqasiz, qo'shiqlarsiz amalga oshmaydi. Musiqashunos T. Vizgo «O'zbekiston xalq sozandalari» kitobiga yozgan «Muqaddima»da «O'rta Osiyo yerlarida yashovchi xalqlar hayotida ashula va cholg'u kuylari salmoqli o'rin egallagan» deyiladi. Arxeologik qazishmalar paytida topilgan kumush lagan va tovoqlardagi rasmlar (eramizning II-III asrlar), qo'llarida musiqa asboblari ushlagan cholg'uchilarning sopoldan yasalgan noyob topilmalar (II-III asr va undan keyingi davrlar) buni aniq isbotlaydi². Mahmud Qoshqariy «Devonu lug'atit turk» asarida mehnat, qahramonlik, marosim, mavsum, lirik qo'shiqlardan o'nlab misollar keltiradi. Jumladan, u yozib olgan muhabbat haqidagi qo'shiqlardan birida shunday deyiladi:

Bering menga so'z kiya,

Menglig qara tuz kiya,

Yalvin tutar ko'z kiya,

Munum mening bilinga³.

Mazmuni: Menga birgina so'z ayt, va'da ber, ey qora xol, yuzlari yoqimli, ey sehrlil ko'zlari bilan ovlaydigan go'zal. Sevgidagi mening alamlarimni tushun³. Endi o'zingiz fikr yuriting. Bu qo'shiqdagi «kiya» erkalash ma'nosini ifodalaydi. Qora ko'z, qora xol, yoqimli yuz haqida yigit qo'shiqni kuysiz aytish mumkinmi? Ha, juda to'g'ri

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. T. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2007. B.65-66.

² Vizgo T. O'zbek xalq sozandalari. T. 1959. B-7.

³ M. Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3-tom. T. «Fan». 1963. B-371.

qarorga keldingiz. Bizning zamonimizdan ming yil oldin ham yigitlar bo'lgan, ular sevgan qizlariga o'z muhabbatlarini izhor etganlar. Tabiiy, bu izhor jozibali ovoz va yoqimli kuy, ta'sirli so'z vositasida amalga oshirilsa, kutilgan natija osonroq ro'y beradi.

Menga benazir ustozimiz ijodini yoritishda, ashulalarini notalashtirishda hamda kitobga tushirishda yaqindan yordam bergan O'zbekiston davlat konservatoriyasi professorlari Otanazar Matyoqubov, Oqilxon Ibragimov, Temur Mahmudov, Mahmud Tojiboev, adabiyotshunos olim Omonulla Madaevga, konservatoriya pedagoglari Baxtiyor Ashurov, dosent Nabijon Qodirov, musiqiy matnlarni tahlil qilishda yordam bergan Toshkent madaniyat kolleji o'qituvchisi Oishahon Xusenova va taniqli jurnalist Olima Hamrovalarga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

An'anaviy ijrochilikning qisqacha tarixi

Avvalambor o'zbek milliy musiqamizning ilmiy zaminiga bir nazar tashlasak. Olimlarimiz aniqlagan ma'lumotlarga ko'ra, eramiz boshlaridayoq musiqa ilmiga bag'ishlangan ilmiy asarlar yozilgan edi. Ammo ular turli sabablarga ko'ra yo'qolgan. Atoqli musiqashunos olim Is'hoq Rajabov «Maqomlar» kitobida keyingi ming yillik boshlaridagi musiqa tarixi haqida shunday dalilni keltiradi: «Fanning boshqa sohalarida ham o'lmas ilmiy asarlar yaratgan buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy va ularning davomchilari musiqa nazariyasi («Ilmi musiqiy») bo'yicha ham ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqasi fani taraqqiyoti tarixida bir davr ochib berdilar»⁴. Mazkur kitobda Abu Nasr Forobiyning o'zi musiqaga bag'ishlangan «Kitabul musiqiy al kabir» («Musiqaga doir katta kitob»), «Qalam fil- musiqa» («Musiqaga haqida so'z»), «Kitabul musiqa» («Musiqaga kitobi»), «Kitabun fi - ihsa' - il - ulum» («Fanlar tasnifiga doir kitob»)ning musiqaga bag'ishlangan qismi, «Kitabun fi - ihsa'il - i qo'» («Musiqaga ritmlari - i qo' tasnifi haqida kitob»)larni yozishga musharraf bo'lgan. Is'hoq Rajabov bu kitobda musiqamiz tarixiga oid yuzdan ortiq asarlar mualliflari, tasnifi yuzasidan mukammal ma'lumot beradi. 2007 yilda esa bu san'atimiz tarixiga oid yana bir ajoyib kitob nashr etildi.

⁴ Rajabov I. «Maqomlar». T. «San'at». 2006. B-14.

Yuqorida keltirgan ma'lumotlarimiz o'zbek musiqasining qadimdan ilmiy zaminga ega ekanini ko'rsatadi va har bir millatdoshimiz qalbida g'urur tuyg'usini tashkil qiladi. Ayni paytda Shashmaqomni tashkil qiluvchi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroqlarning o'nlab fasllari bilan bizning zamonamizga madaniy meros bo'lib yetib kelishi bejiz emasligini tasdiqlaydi.

Shu o'rinda ba'zi ilmiy manbalardan o'rin olgan fojia bilan yakun topgan ajoyib bir voqeani keltirib o'tishni joiz deb topdik. Bu voqea ayniqsa endigina musiqa san'ati olamiga kirib kelayotgan yosh umidli farzandlarimizga juda ibratli deb hisoblaymiz. Xususan, Ismatulloh ibn Ne'matulloh Mo'jiziyning "Tavorixi musiqiyun" risolasida keltirilgan bir voqea e'tiborni tortadi. Bir kuni Qobul shahridagi bir bog'da akobir, ashrof, umaro, vuzaro, ulamo va avliyolar ishtirokida shohona majlis o'tkaziladi. Majlisda hozir bo'lganlarga turli taomlar tortilgach, Abulqosim Bobirshohning ishorasi bilan hazrat Mavlono Sohob Balxiy tanburda "Cho'li iroq"ni chala boshlaydi. "Tanburni sehrofarin bir tarzda so'zlayturuvchi" hazrat kuyning ikkinchi avjidan o'tib, uchinchi avjiga etganida bir bulbul daraxtdan uchib kelib, tanburning qulog'iga qo'nib sayrashni boshlaydi. Bundan hayratga kelgan majlis ahli orasidan bir necha kishi behush holga keladi. Sayrashda davom etgan bulbul kuy eng avjiga etganida uzoqroqdan uchib kelib o'zini tanburga ura boshlaydi. Etti-sakkiz marotaba o'zini tanburga urgach, erga yiqiladi. Mavlono ham tanburni tashlab, yig'laganicha hushidan ketadi. Bir vaqtdan co'ng behush bo'lganlar hushiga keladi. Lekin Mavlono Sohob Balxiy bilan bulbul xushiga kelmaydi. O'zbek musiqa san'ati tarixida bunday afsona sifat voqealarni ko'plab uchratish mumkin. Navro'z, Mehrjon, hosil bayramlari, oilaviy to'y hashamlari sozanda va xonandalarsiz o'tmagan. XIX asrda yashab ijod etgan mumtoz shoir Muhammad Rizo Ogahiy «To'ynoma» masnaviyasida uloq musobaqalari, kurash, dor o'yinlari haqida hikoya qila turib nog'ora, surnay, karnay ovozlari to'yga fayz kiritganini yozadi. Shu bilan birga g'ijjak va tanbur navolarini alohida ajratadi:

«G'ijjak qilibon fig'onu nola,
Hol ahlini soldi o'zga hola.

Tanbur etibon necha navolar,
Har kimga solib tuman havolar⁵.

Shoirning masnaviysida g'ijjak va tanbur ovozinig o'ziga xosligi, sozandalar mashqi parvozi beqiyos ekani madh etilgan. G'ijjak sadosini tinglagan aql o'zini o'zga holda his etgan bo'lsa, tanbur navolari hammani hayol parvozigacha chorladi.

Yurtimizda o'zbek millati vakili borki, musiqa olamiga yo tinglovchi – muxlis, yo sozanda-xonanda sifatida aloqadordir. Xorazmda o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida xonlik qilgan Muhammad Rahimxon soniy o'zi musiqa ijod etish bilan bir qatorda (Feruz taxallusi bilan) har yili saroyda sozanda, xonanda, baxshilar ko'rigini o'tkazgan. Sinovdan o'ta olmagan san'atkor bir yilgacha tomoshabin oldida soz chalish, ashula kuylash, doston aytish huquqidan mahrum etilgan. Faqat kelgusi yili xon sinovidan o'tishgina unga musiqa san'atini namoyish qilish huquqini bergan. Buxoro xonligi, Qo'qon xonligida ham bunday sinov-tanlovlar muttasil ravishda o'tkazib borilgani ma'lum. Musiqaga bo'lgan bunday talabchanlik asosidagi munosabat «Shashmaqom» sirlarini to'liq egallash majburiyatini hosil qilgan. Shuning uchun havaskor sozanda va xonandaning yetuk mutaxassis, professional san'atkor bo'lib yetishishi oson bo'lmagan. Bu an'ana keyinchalik xonlik zamonlari tugatilib ketganidan keyin ustoz san'atkorlar tomonidan davom ettirildi.

XX asr o'zbek musiqasi sarchashmasidan Domla Halim Ibodov (1878 - 1940), Mulla To'ychi Toshmuhamedov (1868 - 1943), Hoji Abdulaziz Rasulov (1852 - 1936), Levi Boboxonov (1873 - 1926), Usta Shodi Azizov (1878 - 1943) kabi o'nlab tabiat benazir iqtidor in'om etgan ajoyib insonlar ijod qildilar. Ularning ustozligida To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Faxriddin Sodiqov, Imomjon Ikromov, Ilyos Akbarovlar musiqa ohanglari yaratishni xususan ijodkorlik faoliyatini davom ettirdilar. Bu sozanda bastakorlar yonida V.A.Uspenskiy, H.Muhamedova, I.Akbarov va boshqa Sharq musiqasi fidoiylari xalq musiqasi folklorini keyingi avlodga meros qilib qoldirish maqsadida doimiy ekspeditsiyalar uyushtirib,

⁵ Ogahiy. 6 jildlik asarlar. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. – B.348.

Farg'ona, Xorazm, Buxoro xududlarida folklor namunalari yozib olish ishlari bilan shug'ullandilar. 1959 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi san'atshunoslik instituti xodimlari tashabbusi bilan «O'zbek xalq sozandalari» kitobi nashrdan chiqdi. Unda yigirma to'qqizta ashulachi va sozandalar haqida ma'lumot berildi. Kitobning muqaddima qismida musiqashunos T.Vizgo o'zbek musiqasi tarixi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, «Shashmaqom»ning vujudga kelish jarayonini qisqa, aniq tarzda bayon qilgan. Kitobning D. Mullaqandov yozgan «O'zbek milliy» ashulalarini ijro etish usullari va turlari haqida»gi maqolasida sharq xonandalik san'atida uch xil ijro uslubi borligi qayd etilgan. «Bu an'anaviy usullar binnigi (burun orqali), guligi (tomoq orqali), ishkami (qorin orqali) aytishdan iborat, ustozdan shogirdga, avloddan avlodga o'tib kelgan»⁶.

Binnigi usulida Matyusuf Xarratov, guligida Jo'raxon Sultonov, ishkamida Domla Halim Ibodovning ashula aytganlari ko'rsatiladi. Muallif aytib o'tgan bu usullar keyingi xonandalar tomonidan davom ettirildi. Bu avlod vakillari sifatida aka-uka Shojalilovlar, aka-uka So'fixonovlar, Komiljon Otaniyozov fayz kiritdilar. Biz alohida ma'lumot berishni niyat qilgan ustoz Orifxon Hotamov ana shu avlod musiqasi san'ati namoyondalarining yirik vakili edi. Bu ajoyib inson XX asrda o'zbek mumtoz musiqasi san'ati rivojiga alohida hissa qo'shgan iste'dod egasi bo'lgan. Mutaxassislar o'rtasida Orifxon Hotamovning uch yo'nalishda ijod qilganligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Birinchidan, nozik didli sozanda; ikkinchidan, yoqimli ovoz egasi; uchinchidan mohir bastakor. Qolaversa, Orifxon Hotamov chuqur musiqiy ilmga ega olim sifatida ham hurmat qozongan. Birgina misol keltiramiz: Urfon Otajon o'zining Saodat Qobulovaga bag'ishlangan «San'at mening quyoshim» kitobida shunday deydi: «Men (U. O.) bir kuni radio eshitib o'tirgan edim, ustodi kull hofiz Orifxon Hotamov bilan suhbat bo'ldi. Shu suhbatda Orifxon Hotamov Usta, Ustod va Ustodi Kull so'zlariga izoh berdi. Ularning aytishlaricha, murabbiylar Ustod (Ustoz) va Ustodi Kull bo'ladilar. Ustod (Ustoz) – hunar, san'at o'rgatadigan murabbiy, bu odam o'z ilmi, hunari va san'atini yaxshi biladi va uni

⁶ Mullaqandov D. O'zbek milliy ashulalarini ijro etish usullari va turlari haqida. «O'zbek xalq sozandalari» – T., 1959. – B. 18.

o‘z shogirdiga o‘rgatadi. Ustod o‘z kasb – hunarini yaxshi biladi-yu, lekin ijodkor emas. Ustodi Kull esa Ustoddan ana shu ijodkorligi bilan ajralib turadi. Ustodi Kull barkamol inson, uning fikrlash, mulohazalari va oldiga qo‘ygan vazifasi bir necha barobar keng va salmoqlidir. Orifxon Hotamov taxminan shunday deb, misol tariqasida Hoji Abdulaziz, Sodirxon hofiz va Jo‘raxon Sultonovlarni aytib o‘tdilar»⁷. Bu iqtibos, bizningcha, juda ibratlidir. Faqat yetuk, orif olim talaffuz qilingan so‘z ta‘rifini yuqoridagidek aniq, ilmiy, daliliy tarzda sharhlashi mumkin. Aslini olganda, bu sharh Orifxon Hotamovning qon-qoniga singib ketgan fazilat izhori edi. Chunki, o‘z ustozlariga cheksiz sadoqat va hurmat Orifxon akada doim alohida sezilgan. Bu inson «didi baland» degan so‘zni bilib ishlata, Jo‘rahon Sultonov, Hojixon Boltaev, To‘xtasin Jalilov, G‘anijon Toshmatov, Komiljon Jabborovlar haqida gap ketganida shu so‘zni aytar edi.

Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Mashrab, Ogahiy g‘azallarini tanlashda matnga diqqat bilan e‘tibor berar edi. «Didi baland» deganda, ustozlarning kuyga, matnga, ovozga talabchanligi ashulani qay usulda aytib, tinglovchiga ma‘qul qilish yo‘llarini izlashlari nazarda tutiladi.

Orifxon Hotamov ustozni e‘zozlash degan tushunchani shunchaki rasmiy tasavvur qilmagan. U hurmatga sazovor bo‘lgan ustoz san‘atkorlarning o‘zaro munosabatlarini ham kuzatib borgan, ulardan bohabor bo‘lgan. O‘tgan asrning 50-yillarida Toshkentning eski shahar hududida katta to‘y bo‘ladi. To‘yga Ma‘murjon Uzoqov taklif qilingan. Ma‘murjon aka avjga chiqib katta ashulani ijro qilayotganida Jo‘raxon Sultonov yetishmayotgani sezilgan. U paytda bu ikki jo‘rovoz (hamnafas) o‘rtasidan ola mushuk o‘tgan hamda Jo‘raxon aka shifoxonada davolanayotgan edi. To‘ydagilar maslahatlashib ustoz oldiga Orifxonning borishini ma‘qul topadilar. O‘rnida iltimos qiladigan, o‘rnida talab qo‘yishni biladigan, gapga usta Orifxon bu vazifani uddalaydi. Jo‘raxon aka ushbu davraga kelgach, to‘y fayziga-fayz qo‘shiladi. To‘yga taklif qilinganlaru, o‘zlaricha ashula eshitish ilinjida qadam qo‘ygan ikki ming tinglovchi Muqimiyning «Ey tabib, qo‘y, boqma bu dardim, be davolardan biri» g‘azali bilan aytiluvchi «Bayot III»ni qayta-qayta ijro qilishlarini so‘rashadi. Hamnafaslikdagi ijro beqiyos bo‘lib maromini

⁷ Otajon Urfon. San‘at mening quyoshimdir. – T.: Yangi asr avlodi. 2006. – B. 30.

topgan edi. Jo'raxon aka va Ma'murjon aka jo'rovozligidan hamma birdek yayraydi. Orifxon esa orasi buzilgan ikki buyuk san'atkorni yana qadrdon bo'lib ketishiga sababchi bo'ladi.

Sobiq sovet tuzumida iymoni mustahkam Orifxon akaga o'xshagan san'atkorlarning hayoti silliq kechgan emas. Eslang, nomi islom olamida mashhur bo'lgan G'ulom qori G'anievdan «adashib» berilgan «O'zbekiston xalq hofizi» unvoni 1954-yilda islomiy e'tiqodi uchun olib tashlangan. Yurtimizda mustaqillik shabadasi esa boshlagani zahoti O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov farmoniga binoan 1989-yil ustoz Orifxon Hotamovga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist», oradan ko'p o'tmay – 1993-yil «O'zbekiston xalq hofizi» unvoni berildi. 1998-yilda esa ustozimiz «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlandi.

Savol va topshiriqlar

1. San'atning ma'nosi nima?
2. Qaysi mumtoz musiqiy asarlarni bilasiz?
3. Mashhur san'atkorlar faoliyatini eslab qoling.

ORIFXON HOTAMOV HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Orifxon Hotamov Jizzax viloyatida 1926-yili (ustozning o'zi ba'zan 1925, ba'zan 1927 der edi) Hotam Ne'matov oilasida tavallud topdi. Hotam mulla oilasi Yangiyo'l tumaniga ko'chib kelganida Orifxon 6-7 yoshlarda bo'lgan. Bir muddat bu yerda istiqomat qilib so'ngra Toshkent tumanining Oxunboboyev kolxoziga ko'chib kelishadi. Orifxon shu yerda taxminan 1944-yilgacha o'rta maktabda o'qidi. Dastlabki musiqa ilmini maktab to'garagida oldi. Tez orada nay, g'ijjakni yaxshigina chaladigan bo'lib qoldi. II- jahon urushi davri Orifxon uchun o'ta mashaqqatli kechgan. Oilaning iqtisodiy quvvati zaiflashgan. Bir oz yordam bo'larmikan deb, yosh Orifxonning kirmagan ko'chasi qolmadi. Hatto uyi atrofidagi tegirmonda ham kuni bo'yi ishlashga majbur bo'ldi. Ammo uning butun hayoli musiqa olamida sayr qilardi. Otasidan diniy va mumtoz adabiyotdan olgan tahsil, musiqa sirlarini mustaqil mashq qilishi bilan egallash o'zining natijasini berdi. 1945-yilda O'zbekiston davlat filarmoniyasiga ishga qabul qilindi. Lekin, maxsus musiqiy bilimning zaifligi pand berib turdi. O'tgan asrning 50-60-yillarida Yevropa musiqasiga alohida hurmat bildirish siyosati avj oldi. Bu paytlarda notani bilish, notaga qarab ijro etish, dutor va boshqa milliy cholg'ulari pardalarini yangi tizimga ko'chirish, milliy musiqa asboblari G'arb kompozitorlarining asarlarini chalishga da'vat kuchaydi. Shuning uchun Orifxon ham oqimga qarab ish tutdi. U 1950-yilda Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga kirib Z.Qodirov sinfida g'ijjak cholg'usidan saboq oldi. 1954-yil bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirdi, ikki yil mobaynida o'rta maktabda musiqa to'garagida bolalarga musiqadan dars berdi. 1956-yil uning hayotida alohida esda qoladigan voqea ro'y berdi. U sharq musiqasi bilimdoni, g'arb musiqasi yo'lida yetuk mutaxassis Doni Zokirov rahbarligidagi o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestriga sato cholg'usi ijrochisi bo'lib ishga kirdi. Ana endi uning professional sozandalik hayoti boshlandi. Taqdir Orifxonni o'z davrining afsonaviy qahramon xonandasi Jo'raxon Sultonov bilan uchrashtirdi. Shu bilan ustozimiz xonandalik sirlarini ham egallash

ORIFXON HOTAMOV HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Orifxon Hotamov Jizzax viloyatida 1926-yili (ustozning o'zi ba'zan 1925, ba'zan 1927 der edi) Hotam Ne'matov oilasida tavallud topdi. Hotam mulla oilasi Yangiyo'l tumaniga ko'chib kelganida Orifxon 6-7 yoshlarda bo'lgan. Bir muddat bu yerda istiqomat qilib so'ngra Toshkent tumanining Oxunboboyev kolxoziga ko'chib kelishadi. Orifxon shu yerda taxminan 1944-yilgacha o'rta maktabda o'qidi. Dastlabki musiqa ilmini maktab to'garagida oldi. Tez orada nay, g'ijjakni yaxshigina chaladigan bo'lib qoldi. II- jahon urushi davri Orifxon uchun o'ta mashaqqatli kechgan. Oilaning iqtisodiy quvvati zaiflashgan. Bir oz yordam bo'larmikan deb, yosh Orifxonning kirmagan ko'chasi qolmadi. Hatto uyi atrofidagi tegirmonda ham kuni bo'yi ishlashga majbur bo'ldi. Ammo uning butun hayoli musiqa olamida sayr qilardi. Otasidan diniy va mumtoz adabiyotdan olgan tahsil, musiqa sirlarini mustaqil mashq qilishi bilan egallash o'zining natijasini berdi. 1945-yilda O'zbekiston davlat filarmoniyasiga ishga qabul qilindi. Lekin, maxsus musiqiy bilimning zaifligi pand berib turdi. O'tgan asrning 50-60-yillarida Yevropa musiqasiga alohida hurmat bildirish siyosati avj oldi. Bu paytlarda notani bilish, notaga qarab ijro etish, dutor va boshqa milliy cholg'ulari pardalarini yangi tizimga ko'chirish, milliy musiqa asboblarida G'arb kompozitorlarining asarlarini chalishga da'vat kuchaydi. Shuning uchun Orifxon ham oqimga qarab ish tutdi. U 1950-yilda Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga kirib Z.Qodirov sinfida g'ijjak cholg'usidan saboq oldi. 1954-yil bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirdi, ikki yil mobaynida o'rta maktabda musiqa to'garagida bolalarga musiqadan dars berdi. 1956-yil uning hayotida alohida esda qoladigan voqea ro'y berdi. U sharq musiqasi bilimdoni, g'arb musiqasi yo'lida yetuk mutaxassis Doni Zokirov rahbarligidagi o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestriga sato cholg'usi ijrochisi bo'lib ishga kirdi. Ana endi uning professional sozandalik hayoti boshlandi. Taqdir Orifxonni o'z davrining afsonaviy qahramon xonandasi Jo'raxon Sulstonov bilan uchrashtirdi. Shu bilan ustozimiz xonandalik sirlarini ham egallash

imkonini qoʻlga kiritdi va bu imkondan oʻta samarali foydalanishga erishdi.

Otasi Hotam eshondan olgan eskicha saboqlari, Joʻraxon Sultonov, Maʼmurjon Uzoqov, Gʻulom qori Gʻaniev bilan boʻlgan suhbatlarda qoʻl keldi. Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Muqimiy, Chustiy kabi mumtoz shoirlarning asarlarini berilib mutolaa qilish ustozlar davrasida asta-sekin mulohazalar bilan ishtirok etish izmini berdi. Joʻraxon akalar kimda kim sheʼr munozarasiga qatnashsa, ifodali oʻqishga eʼtibor qilishardi. Aruz vaznida esa choʻziq hijo qisqa hijo choʻziq oʻqilgani zahoti ziyrak eshituvchining gʻashi kelib qoladi. Shundan keyin noʻnoq shinavandani oʻrtaga aralashtirmaslik choralari koʻriladi. Bu jihatdan Orifxon ustozlarni toʻliq qoniqtirardi. Aruzdagi sheʼrni oʻqishdan tashqari ramal, hazaj bahrlar bilan bogʻliq musaddas, musamman tarmoqlar; mahzuf, maqsur, solim yoʻllarini mukammal bilishi Joʻraxon akaning yosh xonandaga boʻlgan eʼtiborini kuchaytirdi. Munozaralarda islomiy muammolarni hal qilishda ham yosh hamroh oʻzining «shunchaki» emasligini isbotlab qoʻyardi. Bunday kezlarda Joʻraxon Sultonov unga otalik mehri bilan boqar, oʻzining ashula aytishdagi oʻrnini bosuvchi merosxoʻridan mamnun boʻlardi. Shubhasiz, – sharq mumtoz sheʼriyati, musiqasi, madaniyati, tarixi yuzasidan doimiy ravishda boʻlib turadigan suhbat – munozaralar ziyrak, uquvli va xushyor Orifxon Hotamovning yetuk hofiz boʻlishida beqiyos ahamiyat kasb etdi. Keyinchalik oʻzida bastakorlik qobiliyati ham borligini sezgan Orifxon oʻnlab gʻazallarni kuyga solar ekan, ustozlardan oʻrgangan har bir bayt, misra, soʻzga alohida yondashish uslubiga ham amal qildi. Hofizlar oʻrtasida ashulaning gʻazal matniga boʻlgan munosabat bir xil emas. Ayrim hofizlar ashulaning oʻzagi kuy deb hisoblaydilar. Ular uchun soʻzni aniq aytish, baytning maʼnosini tushunib ijro etish shart emas. Bunday hofizlar fikricha, tinglovchi faqat kuy va ovoz muxlisidir. Soʻz esa ana shu kuyning keyingi darajadagi vositasi xolos. Ikkinchi turdagi hofizlar ham borki, ular uchun tinglovchiga gʻazalning maʼnosini yetkazish muhim. Ashuladagi kuyni gʻazaldan, gʻazalni kuydan ustun qoʻyib boʻlmaydi. Kuy gʻazal maʼnosiga mos kelishi, gʻazaldagi nozik nuqtalarni boʻrttirib koʻrsata olish lozim. Ana shunda

hofizning shirali ovozi kuy va g'azalni bir-biriga bog'lab muxlisiga sovg'a qiladi. Kuy ham, g'azal ham, ovoz ham, ijro ham oliy san'at namunasi bo'lishi lozim. Orifxon Hotamov ana shunday hofizlardan edi. Buning ustiga ustozning yurish-turishlari, oilani boshqarish, farzand tarbiyasi, to'yu-marakalarda, davralarda o'zini tutishlari hamisha ibratli bo'lgan.

Ustozdagi bunday oliyjanoblik fazilati ular bilan muomaladagi har bir shogird, har bir muxlis va shinavandalarga meros bo'lib qoldi.

Ustoz xislatlaridan hayratlantirgan yana bir jihat shundaki, u kishi hech qachon bironi g'iybat qilmasdilar. Huda-behuda gaplarga toqatlari yo'q edi. Zinhor-bazinhor bekor o'tirmasdilar. Qachon qaramang, mumtoz she'riyatga oshno edilar va biz shogirdlarni ham shunga da'vat etardilar. Orifxon akaning yonida xalq xizmati, konsertlarga ko'p borganman, turli tantanalarda ishtirok etganman. U kishi kuylaganlarida butun atrof sokinlikka cho'kardi, odamlar kiprik qoqmasdan ijroni tinglardilar, ashula tugagach qarsaklarning zarbidan yeru osmon titrardi go'yo. Ana shunday shuhrat, obro'-e'tibor, e'zozdagi kishining aslo manmanlikka berilmasdan, hamisha kamsuqum va kamtarin bo'lib yurishlari komillik nishonasidir. U kishining ustoz, O'zbekiston xalq hofizi Jo'raxon Sultonovning: «Men Orifxonga ko'p narsa o'rgatdim va undan ham nimanidir o'rgandim», deyishlari bejiz emas. O'zbekiston xalq artisti betakror sozanda va bastakor G'anijon Toshmatov: «Orifxon uch qirrali san'atkor: - chaladi, aytadi, bastalaydi», deyishlari o'rinli. Orifxon Hotamov - bastakorlikda ham yuksak martabaga erishgan ijod sohibi. Uning xalq ashulalari va maqom yo'llarida yaratgan yuzlab asarlari musiqiy merosimizning durdonasiga aylanib ulgurdi. Hofizning bastakorlik mahorati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun u kishi yaratgan ashula haqida qisqacha to'xtalsak.

Hazrat Navoiyning «Qoshi yosinmu deyin» g'azaliga bastalangan kuy Orifxon Hotamovga katta obro'-e'tibor va shuhrat keltirdi. Ashula «Ushshoq» ohanglari asosida bastalangan. Uning avj pardasi Farg'ona-Toshkent yo'llaridagi «Savti Ushshoq» ohanglarining qisqartirilgan namunasi. Ashula yana «Ushshoq» ohangi bilan yakun topadi. Xo'sh, bu ashulaning originalligi nimada? Nima

uchun bu asar aynan «Qoshi yosinmu deyin» nomi bilan mashhur? Uni «Nazirayi ushshoq» yoki «Katta ushshoq» deb atasa ham bo'lardiku.

Gap shundaki, bastakor ushshoq ohanglaridagi kamdan kam kishilar his qila oladigan o'ta nozik ruhiy holatlarni ashulaga mohirlik bilan singdira oldi va mazkur ashula bastakorlik san'atida yangi bir uslub bo'lib vujudga keldi. Oddiy, ayni paytda ijrosi anchayin murakkab bu ashulada kuy va so'z uyg'unligining eng sodda, go'zal namunasi o'zining bor latofati bilan aks etgan. Shunday ekan, bu ashulani «Orifxon Ushshog'i» deb aytsak ham xato bo'lmaydi.

Ashulaning yaratilishi haqida ustoz shunday xotirani eslagandi. «Navoiyning g'azali qo'limga tegdi. Uni shoshilmay o'qiy boshladim. Bir mahal o'qilayotgan g'azal o'z-o'zidan kuyga ko'chdi-yu, musiqiylik kasb etdi. Ko'p o'tmay uni Doni Zokirovga hirgoyi qilib bergan edim, u kishiga ma'qul tushdi. «Bir oz jilo bering, yaxshi narsa chiqadi», – dedilar. Shu bilan «Qoshi yosinmu deyin» qolipga tushdi qo'ydi».

Aslida kuyning vujudga kelishiga bizningcha Orifxon akaning aruz vaznini yaxshi bilishi ham sabab bo'lgan. Bu g'azal aruzning ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan bo'lib «yosinmu», «osinmu», «losinmu» bo'g'inlari alohida cho'zib o'qilgan. «Foilotun, foilotun, foilotun, foilun» rukn tizimi g'azal misrasiga moslashtirilib ifodali o'qishga harakat qilinsa, kuyga moyillik sezilgan. Ikkinchidan, tabiat in'om etgan kuy bastalash iqtidori aynan g'azal bilan tanishish jarayonida ustoz hayolini qamragan. Uchinchidan, g'azal matni mumtoz she'riyat bilimdoni Orifxon Hotamovga tinchlik bermagan:

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?

Ko'nglima har birining dardu balosinmu deyin?

Ko'zi qahrinmu deyin, kiprigi zahrinmu deyin?

Bu qudurat ora ruxsori safosinmu deyin?

Ishq dardinmu deyin, kim hajr zahrinmu deyin?

Bu qattiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?

Zulfi dolinmu deyin, la'li kalominmu deyin.

Birining qaddin, yana birining adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi nixolinmu deyin,
Moviy ko'nglak uzra gulrangni qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin?
Jonima har birining jabru jafosinmu deyin?

Ey Navoiy, dema qoshu ko'zining vasfini et,
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?

G'azalning birinchi bayti – matla'ga e'tibor qilamiz:
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?
Ko'nglima har birining, dardu balosinmu deyin?

Sharq adabiyotida yoy hokimlik ashyosi hisoblanadi. Yoyga ega bo'lish mifologik tasavvurda fetish – jonsiz narsani muqaddaslashtirish bilan bog'lanadi va muayyan hududni boshqarish ma'nosini ifodalaydi. Yorning qoshi yoyga o'xshatildimi, albatta uning boshqaruvchisi yo ko'z, yo qosh egasi tilga olinadi. Oshiq o'z ma'shuqasining qoshi ham, ko'zi ham unga ozor berayotganini ma'lum qilar ekan, azobning bosh sababchisi qoshning mislsiz go'zal yoyga o'xshaganligidan hasrat qilaymi, ko'zining inson vujudiga g'ulg'ula soluvchi qora ekanligidan shikoyat qilaymi deb, kitobxondan – hasratdoshidan so'rayotgandek bo'ladi. Yorning ko'zi shu qadar qora va karashmaliki, oshiqni aqldan ozdirish darajasiga yetib boradi. Bu ikki mo'jiza oshiq ko'nglini zabt etdi. Unga ruhiy ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda oshiq dardga chalindi. Ammo, baytni yanada nozikroq tushunishga urinsak, yor qoshi va ko'zi yetkazgan dard oshiqqa – shoirga hastalik emas, lazzat bag'ishlayotgani ham ravshanlashadi. Ya'ni yoyga o'xshagan qosh, qora ko'z shoirni oshiq qildi. Oshqlik esa shoir havas qilgan kasb edi. Shu bois u tortayotgan azob qoniqish lazzatidan iboratdir.

Ko'zi qahrinmu deyin, kiprigi zahrinmu deyin?
Bu qudurat ora ruxsori safosinmu deyin?



Yorning ko'zi qora, ham qahrlidir. Bu esa yorning achchiqlanayotganini bildiradi. Kiprik mumtoz adabiyotda kamon – yoydan otiladigan o'q (o'qning uchidagi po'lat paykon) yoki xanjarga o'xshatiladi. Avvalgi bayt bilan qo'shilsa, ko'z yoyning egasi sifatida oshiqqa kiprik o'qini otishga tayyorlanmoqda. Ya'ni oshiqni achchiq og'riq, qattiq azobdan qiynalish kutmoqda. Jarohatlanish xavfi oshiqni havotirga solmoqda. Shoir o'ziga nisbatan shafqatsiz hujum bo'layotganini e'tirof etar ekan, bu hujumni qaysi birini aytish bilan hasratini yozishga nochorligini tan oladi. Ya'ni shunisi ham azobli va ajablili, ana shunday shiddatli hujum bo'layotgan bir paytda yuzining porlab odamga ham rohat, ham azob berishini aytmayisizmi?! Demak, bayt mazmunida shoirning o'ta murakkab ruhiy holat ta'sirida qolgani aks etgan ekan. Birinchi misradagi «qahr», zahr»; ikkinchi misradagi «safo» so'zlari badiiy adabiyotda tazod – qarshilantirish san'ati deb ataladi. Bu san'at shoir yaratmoqchi bo'lgan murakkab vaziyat ifodasiga aniqlik bag'ishlaydi. Shu bilan birga ko'z, kiprik, ruxsor so'zlari badiiy adabiyotda tanosub san'atiga misoldir. Tanosubdan she'rda ma'no jihatdan yaqin so'zlarni qo'llab chiroyli ifodalar yaratishda foydalaniladi

Ishq dardimu deyin, kim hajr zahrinmu deyin?

Bu qattiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?

Yorning paydo qilgan ishqning dardini izhor qilaymi, undan ajralishdagi vujudimda paydo bo'lgan qirg'in barot urush haqida bayon qilaymi, mana shunday musibatli bir paytda uning vaslini ko'rganim zahoti shifo topishim tarixini yozaymi, deb shoir bizdan maslahat so'rayotgandek tuyuladi. Bu baytda ham «dard», «nabard» so'zlari bilan «vasl davosi» tazod san'atini hosil qilgan.

Zulfi dolinmu deyin, la'li kalominmu deyin.

Birining qaddin, yana birining adosinmu deyin?!

O'zbek shoirlari ijodida yorning sochi alohida diqqat bilan tasvirlanadi. Sochni kimdir ajdarga, kimdir ilonga, kimdir zanjirga, kimdir narvonga o'xshatadi. Alisher Navoiy bu baytda ma'shuqaning zulfi-sochini oshiqni qo'lga kirituvchi, asir oluvchi tuzoqqa o'xshatgan. Qizig'i shundaki, hayotda tuzoqqa ilinmaslik, unga chap berib o'tish mumkin, ammo shoir tasvirlayotgan

vaziyatda undan qutulish chorasi yo‘q. Oshiq tuzoqqa ilinishga taqdir tomondan hukm qilingan. Chunki La‘li – qizil labdan chiqayotgan kalom bu tuzoqqa qo‘yilgan xo‘rakdir. Xo‘rak shu qadar jozibali va diqqatni tortuvchiki, unga chap berib qutulishning chorasi yo‘q. Shuning uchun shoir hayronligi yanada ortmoqda: «Xo‘sh, sochning baland kishan ekanini ta‘riflaymi, u aytayotgan so‘zlarning tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada go‘zalligini tasvirlaymi? Har ikki holatda ham mening ruhiy iztirobimda ijobiy o‘zgarish ro‘y beradiganga o‘xshamaydi.

Turfa xolinmu deyin, qaddi nixolinmu deyin,

Moviy ko‘nglak uzra gulrangni qabosinmu deyin?!

Men ta‘riflayotgan yorning yuzidagi hamma a‘zolari oliy darajada go‘zal ekanini aytdim. Endi uning xoli ham ajoyib, odamni o‘ziga jalb qiluvchi ekanini bildiraman. Shu bilan birga ma‘shuqaning qaddi qomati qanchalar kelishganligini ham tasvirlayman. Qadimgi she‘rlarda yosh yigit – qizning qomati arab alifbosidagi alif (l) harfiga yoki ko‘chat qilishga tayyorlangan niholga o‘xshatiladi. Har ikki holatda ham qomatdagi go‘zallik mezoni nazarda tutiladi. Endi ma‘shuqa haqida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun uning kiyimini ham esga olish kerak edi. Shoir bayoniga ko‘ra uning yori havo rang ko‘ylak kiygan ekan. Uning ustidan odamni chalg‘itish maqsadidami yana qizil libos ham tashlab olibdi.

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin?

Jonima har birining janbru jafosinmu deyin?

Shoirlarimiz chorasiz qolgan paytlarda taqdirdan shikoyat qiladilar. Bunday vaziyatda charxpalak, ya‘ni olamning g‘ildirakka o‘xshab aylanishi va charxning hech kimga muruvvat qilmasligi, undan faqat ranj alam kutish mumkinligi ko‘rsatiladi. Dahr olam esa charxning davomidagi tushuncha. Dahr ham doim shoirga mashaqqat yetkazadi. Bu baytda shoir taqdirdan shikoyat qiladi. Yorug‘ dunyodagi hamma jabrni, azobni tortish mening qismatimga aylangan demoqchi.

Ey Navoiy, dema qoshu ko‘zining vasfini et,

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?

G‘azalda oxirgi bayt maqta’ – tugallanma deyiladi. Alisher Navoiy odatda maqta‘da yozgan misralari ma‘nosi natijasida kelgan

xulosani bayon etadi. Biz fikr yuritgan g'azalning yakuni taqdirga tan berish ohangi bilan nihoyasiga yetgan. Ishq dardini, yor ta'rifini, qoshu ko'zining vasfini har qancha maqtangani bilan tamom bo'lmaydi. Chunki, ishq savdosi bu dunyoda tubi yo'q dengiz. Uning tubiga faqat Boqiy (abadiy) dunyoga o'tganda yetish mumkin. Shuning uchun, shoir birinchi misradagi fikrni takrorlaydi (adabiyotshunoslikda bu usul «radd – ul matla» deyiladi va o'z g'azaliga falsafiy yakun bag'ishlaydi.

Albatta, ustozimiz Orifxon Hotamov bu g'azalning ma'nosini boshqacharoq, chuqurroq, falsafiyroq tushungan bo'lishi mumkin. Har holda g'azalning ma'no ko'lamidagi kenglik ustozimiz e'tiborini jalb qilgan va go'zal kuyning vujudga kelishiga sabab bo'lganligi quvonarlidir.

Ijod ahlining qayta-qayta ta'kidlashlariga ko'ra, she'r yozilishi kerak bo'lgan onlarda shoir o'zini boshqacha his qila boshlaydi. Uning hayolida misralar tizimi jonlanaveradi. Qanday yumush bilan shug'ullanmasin, nazm jilosi unga tinchlik bermaydi. Oxiri u qo'lga qalam olib ishga tushadi va she'r misralarini yarata boshlaydi. Unga bastalangan kuy ham taxminan ana shunday paydo bo'ladi.

Biz, mavlono Lutfiyning «Sensan sevarim, hoh inon, hoh inonma» g'azali qay yo'sinda yozilganligi haqida fikr yurita olmaymiz. Ammo, Orifxon Hotamov tomonidan unga bastalangan kuy bir lahzada paydo bo'lganini bilamiz. Ustoz xotira qilishicha, bu she'rni o'qigani zahoti kuy jilolanib o'zlaridan- o'zlari xonish qila boshlaganlarini sezmay qolgan ekanlar. Har bir baytda takrorlanuvchi «hoh inon, hoh inonma» so'zlari kuyning paydo bo'lishida asosiy vazifani bajargan. Birinchi baytdan keyingisining ohangi mumtoz usul yo'lida kela boshlaganu, butun g'azal davomidagi kuy asosi shakllangan. Ustozning g'azal vaznini to'g'ri o'qigani bois bastalanajak ohang to'liq namoyon bo'lgan.

Sensan sevarim hoh inon, hoh inonma,

Qondur jigarim hoh inon, hoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar ey moh,

Ohi saxarim hoh inon, hoh inonma.

Haqqoki qilich kelsa boshimg'a eshikingdin,

Yo'qtur guzarim hoh inon, hoh inonma.

Usruk ko'zung ashkolina har chah nazar etsam,
Qolmas xabarim, hoh inon, hoh inonma.
Y`qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz,
Nuri basarim, hoh inon, hoh inonma.
Oy yuzina ko'z solg'ali o'zga kishi birla,
Yo'qtur nazarim hoh inon, hoh inonma.
Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey sinbarim hoh inon, hoh inonma.
Sensan sevarim hoh inon, hoh inonma,
Qondur jigarim hoh inon, hoh inonma.

Lutfiyning g'azali aruzning hazaji musammani axrabi makfufi mahfuz bahrida yozilgan. Uni to'g'ri o'qish uchun quyidagi afoil tizimiga e'tibor beriladi: maf'uvlu mafoiylyu mafoiylyu fauvlyun. Afoilni bir ikki marta qaytarib, bu ohangni g'azal o'qishga tadbiq qilsak, baytlarni to'g'ri o'qishga erishamiz.

Endi g'azal ma'nosini qalbimizga tuyishda Orifxon ustoz izidan borishga harakat qilamiz:

Sensan sevarim hoh inon, hoh inonma,
Qondur jigarim hoh inon, hoh inonma.

Mumtoz she'riyatda oshiqlikning bir necha yo'li bor. Avvalo, tasavvuf falsafasi asosida ishq Haq (Allohga intilish) va ishq majoz (foniy dunyo ishq) tushunchasi bor. Shoirlarimiz o'zlarining ishq dardlarini izhor etishar ekan, yaratganning jamolini ko'rish havasini bildirishgan. Ayni paytda mavjud hayotdagi go'zal ma'shuqaga nisbatan muhabbat tuyg'usini ifodalashlari ham mumkin bo'lgan. Ba'zan bu ikki yo'nalishdagi ishq bayoni o'rtasidagi aniq chegara seziladi. (Sulaymon Boqirg'oniy nazmini esga oling), ba'zan bu farq sirligicha qoladi. Bunday paytda hukm o'quvchiga havola qilinadi. Lutfiy g'azalidagi matla' (boshlanish bayt) Haq ishq bilan bog'langandek taassurot qoldiradi. Keyingi baytlarda ko'proq mavjud hayot tasvirlangan. Ammo tasavvuf falsafasida shunaqa murakkab fikrlash tizimi borki, har qanday ifodada ham mutasavvif oshiq o'z maqsadidan adashmasligi mumkin.

Oshiqlikda tama' yo'q. U faqat oshiq bo'lish havasi bilan yashaydi, ishqini ma'shuqaga bildiradi. Agar ma'shuqa unga iltifot qilsa, yaxshi. Iltifot qilmasa, oshiq o'z maqsadiga erishish yo'lida yashayveradi. G'azal matla'sida shu munosabat aks etgan. Ya'ni men sening oshiqingman. Bu daraja mening havasim. Sen oshiqligimga hoh ishon, hoh ishonma. Sening ishqimni rad etishing meni o'z yo'limdan voz kechtirmaydi.

Odatda jigar odam tana a'zolaridan og'ir g'amni o'ziga oladigani hisoblanadi. Shoir ishq azobi uning jigarida asorat qoldirganini bildirmoqda. Ishq dardi chegaradan oshib ketgani hisobiga jigarining azob qoniga to'lib ketganidan shikoyat qilmoqda.

Hijron kechasi charxi falakka yetar ey moh,

Ohi saharim, hoh inon, hoh inonma.

Senga yetishish hayoli bilan o'tkazgan ayriliq kechasida mening ohu nolam charxi falakka – butun olam, butun koinotga yetib, borliqni g'ariblik alamlarim to'ldiradi. Bu fig'onimga uyqusiz oh chekkan saharlarim guvoh. Sen ishonishing yoki ishonmasliging mumkin, ammo saharlab dunyoni titroqqa soluvchi oh chekishimni to'xtatolmayman.

Haqqoki qilich kelsa, boshimg'a eshikingdin,

Yo'qtur guzarim, hoh inon, hoh inonma.

Mening muhabbatimni sen rad etishing mumkin. Hatto g'azablanishing mumkin. Shunda meni jazolash uchun choralar toparsan, ishq izhor qilgan men bechorani o'ldirmoqchi bo'larsan, ammo har qanday og'ir hukm chiqarishingdan qat'iy nazar o'zimga sen mavjud bo'lgan manzildan boshqa intiladigan joy topishni istamayman.

Usruk ko'zing ashkolina hargah nazar etsam,

Qolmas xabarim, hoh inon, hoh inonma.

Meni o'ziga maftun etgan mastona ko'zingga tikilsam, tanamdan jonim chiqib ketgandek bo'ladi. Mening hayotim sening xohishinga bog'langan. Nochor ahvolda qolganimga ishon. Ishonmasang, o'zing bilasan.

Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz

Nuri basarim, hoh inon, hoh inonma.

Baytda Ya'qub payg'ambar qissasiga ishora bor. Qissa mazmunida nopok farzandlari xiyonati oqibatida Ya'qub o'zining eng suyukli o'g'li Yusufdan ajralib qoladi. Ayriliq azobidan umrini yig'i bilan o'tkazib ko'z nuridan ayriladi. Qissa oxirida Yusufdan kelgan xabar ramzi ko'ylagini ko'ziga surtishganida, ko'zi ko'ra boshlaydi. Lutfiy ana shu islomiy voqeani eslab, ma'shuqasi sog'inchida tinimsiz yig'lashi oqibatida ko'r bo'lib qolganini aytmoqda. Ma'shuqani qayta ko'rish imkonini qaytaruvchi Yusufga qiyoslaydi. Faqat sen mening ko'zimni ocha olasan. Bunday mo'jiza yaratishga ishonishing ham, ishonmasliging ham mumkin demoqchi.

Oy yuzingga ko'z solg'ali o'zga kishi birla,

Yo'qtur nazarim hoh inon, hoh inonma.

Endi har bir oshiqda bo'lgani kabi rashk tuyg'usi bilan tanishamiz. Ma'shuqa husniga begona ko'z bilan hamroh bo'lib ko'z tashlash shoir uchun o'limdan ham ortiq vaziyatni vujudga keltiradi. Yorning iltifotidan, visol davlatidan bahramand bo'lish faqat menga nasib etishini istayman, - degan ma'no ifodalanadi.

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yashurdi,

Ey sinbarim, hoh inon, hoh inonma.

G'azalning eng serma'no va serjilo bayti sifatida maqta' (tugallanma)ni keltirish mumkin. Unda mubolag'aning go'zal namunasi kashf etilgan. Pardaning orqasiga rangli buyum berkitilsa uning rangi pardaga uradi: Parda orqasida yashiringan narsa rangi sezilib turadi. Oltinning rangi sariq. Shoir ma'shuqa ishqida iztirob chekib sarg'ayib ketgan. Lutfiy yuzi rangidagi bu siniqlikni oltinni yashirishga o'xshatib mubolag'a yaratmoqda. Ishq oltin kabi qimmatbaho va noyob narsa. Oltinni yashirishga uringan odam sirning oshkor bo'lishini istamaydi. Shoir ham o'zi uchun qimmatli bo'lgan ishqini yashirin tutmoqchi bo'lgani uchun sarg'ayib ketgan. Odatda kumush bilan oltin noyob ma'dan ko'pincha yonma yon tilga olinadi va yonma yon tursa ma'qul hisoblanadi. Shuning uchun oltinni yashirgan yuzga kumush badanli ma'shuqaning yaqinligi mantiq jihatidan o'zini oqlaydi. Shunday qilib, Lutfiyning g'azali shoirona ishq ifodasiga qo'yilgan mumtoz haykal ramziga aylangan. Undagi «hoh inon, hoh inonma»

radifi esa baytdan baytga mazmunan takrorlanadi va ruhiy holatni ifodalashda har gal vazminlashadi. Matnda ajoyib sifatlash, o'xshatish, talmeh, qarshilantirish, mubolag'a namunalari kashf etilganki, ular Orifxon Hotamovdek so'zni baholash iqtidoriga ega ustoz e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Ustozimiz bir kuyni bastalash bilan ikkita benazir ashulaning o'zbek musiqa san'atidan o'rin olishga erishdilar. «Tazmin» yo'lidan foydalanib yozilgan Mashrabning shu radifli g'azali ham ashula qilib aytili. Mazkur ashula O'zbekiston xalq hofizi Ochilxon Otaxonov ijrosida mukammal tarzda aytili.

Orifxon Hotamov biz – shogirdlar nazdida baxtli inson edilar. U kishi mumtoz musiqa san'atimizning XX asr darg'alari bilan hamnafas yashadi. Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Ilyos Akbarov, Doni Zokirovdek tabiat iqtidor in'om etgan taniqli sozanda, xonandalar bilan hamnafas ijod qildi. G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Ma'rufxo'ja Bahodirov, Rasulqori Mamadaliev, Fattoxxon Mamadalievlardek xalq mehrini qozondi. Ustozning jo'rovozu hamrohlari Hakimjon Fayziev, keyinchalik ukasi Ahrorxon Hotamov va farzandlari Ismoilxon, Mahammadxon Hotamovlar aziz inson Orifxon Hotamovdan hamisha ko'p narsa o'rgandi va ko'p narsaga ega bo'ldilar. Bugungi kunda xalqimiz rohat olib tinglaydigan «Yovvoyi tanovar», «Yovvoyi chorgoh», Giryra turkumi; «Giryra – I, – II, – III, – IV», «Ushshoq», «Sarahbori Segoh», «Bayot», «Navo», «Muborak» kabi o'nlab kuy va ashulalarning radio, televidenie hamda sahna ijrolarida bu inson hissasi aniq sezilib turadi. Chunki ustozimiz turli sabab bilan ijro etilmay qolgan mumtoz kuy va ashulalarni tanlab shogirdlariga erinmay o'rgatdi. Bevosita ustoz mashqlaridan bahramand bo'lgan Mavluda Halilova (Matluba Dadaboeva) O'zbekiston xalq artisti, Mahmud Yo'ldoshev, Mahmud Tojiboev, Beknazar Do'smurodov, Erkin Ro'zmatov, Abdunabi Ibrohimovlar O'zbekiston xalq hofizlari Mahbuba Hasanova, Nasiba Sattorova O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvonlariga musharraf bo'ldilar. Bundan tashqari xalq xizmatidagi o'nlab sozanda, xonanda, bastakorlar fahr bilan Orifxon Hotamovni o'zlariga ustoz deb biladilar.

Orifxon Hotamov bastalagan kuylar sadosi o'chmas ekan, shogirdlari ovozi har bir xonadonda yangrar ekan, keyingi avlod san'atkorlari ustoz o'gitlarini eslar ekan, taniqli inson xotirasi yashayveradi.

Bu e'zozning hammasini ustozimiz iymonining butunligidan, xalq va mumtoz qadriyatlari hurmat qilishidan, ustoz sozanda, xonanda, bastakorlar xotirasiga sadoqatidan, kamtarinligidan, sabrli qanoatli bo'lganligidan deb bilamiz.

Savol va topshiriqlar

1. Qaysi musiqiy asarlarni bilasiz?
2. Mashhur san'atkorlar faoliyatini eslab qoling.
3. Orifxon Hotamov bastakor ham bo'lganmi?
4. Orifxon Hotamov hayoti va faoliyatini eslab qoling.

II-BOB.

ORIFXON HOTAMOV BASTALAGAN ASARLARINING YARATILISH TARIXI

Har bir san'at turlari va alohida yaratilgan san'at asarini baholash sirlari bor. Shu o'rinda avvalo ta'kidlash joizki, san'at asarining qiymati, unga beriladigan qadr hech qachon son, hajm, vazn bilan o'lchanmaydi. Aytaylik, bir odam tergan paxta ikkinchisidan 10-15 kg. ko'proq bo'lsa, ikkinchi terimchi ko'proq maqtaladi va ortiqroq miqdorda mehnat haqi olishi mumkin. Ammo bir shoir ma'lum miqdorda she'r yozgan bo'lsa-yu, ikkinchisi undan ikki barobar ko'proq nazm namunasini bitsa, ikkinchi shoir avvalgisidan yaxshiroq ekan, degan xulosa chiqara olmaymiz. Shu o'lchov tasviriy va musiqa san'atiga ham taalluqlidir. Xususan, agar musiqa sadolarini shunchaki, loqaydlik bilan tinglasak, demak, unda kishini to'lqinlantiradigan ohang yo'q bo'lib chiqadi. Ayni paytda, musiqada bizning ruhiyatimizga ta'sir qiluvchi navolar eshitilsa, uning qadriga yetishimiz, hatto qadriga yetgandan ham ilhom olishimiz mumkin.

Odatda biron xonanda ashula aytayotganda, ashula ohangining ko'lamiga, ovoz diapazoniga qarab o'zini bepayon dala manzarasida his qilishi tabiiy. O'zbekning katta ashulasidan cho'qqilari oppoq qor bilan qoplangan osmono'par tog'lar, ko'kka burkangan qir – adirlar, o'ynoqi soylar, baland terak barglarining shivirlashlari sezilib turadi. Yana shunday ijro asarlari bo'ladiki, ular bir guruh ulfatlar gurungiga mosligi bilan esda qoladi. Shuningdek, kichik bir xonada bor yo'g'i ikki – uch shinavandalar eshitadigan ashulalar ham bor. Ustozimiz Orifxon Hotamov bizga kuyinchaklik bilan ashulani eshitishni ham bilish kerak, degan, fikrni uqtirishga urinar edilar. Biron kuy yoki honishni eshitganlaridan keyin sozanda cholg'usiga, xonanda ovozi va ijrosiga baho berishni yodidan chiqarmas edi. Ba'zan esa, bizning fikrimizni bilishga qiziqardilar.

Orifxon Hotamov bastalagan asarlar esa son jihatdan ko'p, sifat jihatdan xo'b edi. Shubhasiz, ularning har biriga alohida to'xtalib o'tish imkoniga ega emasmiz. Binobarin, ayrimlari yuzasidan fikr mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

Orifxon ustozimizning Navoiyning «Bo‘lmish» g‘azaliga bastalangan ashulasini ustoz Jo‘raxon Sultonov bilan hamnafaslikda aytib, xalq o‘rtasida mashhur bo‘lib, ularga hurmat keltirgan ashularidan biri bo‘ldi. Bu asarni yoshlar o‘rtasida ijro etib kelinishiga sabab, shoir ichki tug‘yon bilan bastakor kechinmalarining kuyda uyg‘unlashuvidir. Bastakor kuy yaratayotganda, nazm muallifi boshidan kechirgan his – hayajonni to‘la his qilishga erisha olgan.

Ma‘lumki, Jo‘raxon Sultonov ijodiga mansub «O‘lmasun» radifi bilan yozilgan g‘azal ashulasini o‘zbek xonadoni maroq bilan tinglagan.

Yoridin hech kim meningdek zor mahjur o‘lmasun,
Jumlai olamda rasvoliqa mashhur o‘lmasun.

Bu ashula Orifxon akaga ham juda yoqqan. Har safargi ijroda vujudlarida alam va ehtirosli to‘lqin paydo bo‘lgan. Asta-sekin bir butun kuyni ustoz mantiqiy lavhalarga taqsimlab, ajratilgan lavhalarni o‘ziga xos usulda qaytadan qo‘shgan. Imkoni boricha Jo‘raxon Sultonov ijodidan uzoqlashishga va ayni paytda undan foydalanishga uringan. Oqibatda Jo‘raxon Sultonov uslubidagi tamoman yangi bir yo‘nalishda «Bo‘lmish» paydo bo‘lgan. Bu ashula shunday so‘zlar bilan boshlanadi:

Bizing shaydo ko‘ngul bechora bo‘lmish,
Malomat dashtida ovora bo‘lmish.

Kuyda «O‘lmasun»dan ko‘ra shahdamlik bor. Ammo Jo‘raxon Sultonov an‘anasi saqlangan. Ehtimol, shuning uchun, san‘at olamidagi mutaxassislar Orifxon Hotamovni ustoz san‘atkorning shogirdi, davomchisi deb hisoblashadi.

Endi ikki ashulaning avj qismiga diqqat qiling:

«Bo‘lmish»da shunday misra bor. Balo tog‘i aro yotqonda bemor, bu o‘rin avjda aytiladi. Bu ohang «O‘lmasun»dagi «Jonuma bedoru zulfin, yo rab, ul miqdor qil» misradagi avjga, ya‘ni kuy tuzilishiga o‘xshab ketadi. Ammo aynan takrorlanmaydi. Kuy strukturasi yaqin. Avjga chiqish yo‘li ham yaqin. Birinchisi, ikkinchi darajadagi avjlar. Misra oxirida avjlarning qaytishi kuzatiladi.

Voqif o'1, holimni aytur chog'da maxmur o'lmasun satrlari aytiladigan avj qaytishi «Bo'lmish» ashulasining xirad sinjobi xoru xora bo'lmish misrasiga to'g'ri keladi. «Bo'lmish» g'azalidagi:

«Urarda dam badam xorog'a boshin,

So'gaklar anda pora – pora bo'lmish baytida «pora – pora» so'zlari bilan Balo tog'i aro yotqonda bemor, hirad sinjobi xoru xora bo'lmish.

«Xirad sinjobi xoru xora bo'lmish»dagi «xoru xora» kuyda ham, g'azalda ham qarama qarshi qo'yilgan. Agar avvalgi baytda ishq alamidan oshiq boshini toshga urib suyaklarini parchalasa, «Balo» deb atalgan tog'da yotgan bemorning tana badani pishib ketgan qadoqqa aylanib ketadi. Ko'ngil istaklari aqlni parchalaydi. Ilohiy ishq bilan bog'langan qalb sabr, qanoatdan ozuqalanib pishadi. G'azalda Navoiyning tasavvuf falsafasi zaminida ijod qilgani namoyon bo'ladi. Orifxon Hotamov kuyida aynan ana shu baytlarning avjda ijro etilishi nazarda tutilgan «Bo'lmish» ustozimizning ilk ijod namunasi edi. Ehtimol, shuning uchun ham Jo'raxon Sultonov qo'llashiga muhtojlik sezilgan va Jo'raxon aka shogirdining ilk mahsulini iliq kutib olgan, «nazari»dan o'tkazgan, hatto, jo'rovozlikda ijro etishga rozi bo'lgan. Natijada, yosh bastakorning o'ziga ishonchi mustahkamlangan.

Endi «Qoshi yosinmu deyin» g'azaliga bastalangan kuy haqida to'xtaylik. Bu g'azalning mazmuniy ma'nosini avvalgi sahifalarda imkon darajasida sharhlaganmiz. Orifxon Hotamov g'azalni ushshoq yo'lga solgan. Kuyning past pardalardan vazminlik bilan asta – sekin yuqori pardalarga ko'tarilishi matn bilan ohang uyg'unligini ta'minlagan. Ushshoq ohangidagi mohiyat bir necha avjning mavjudligi bilan belgilanadi. Har bir avj yuqori pardadan pastga tushadi va keyingi nafas vositasida yana balandroqqa ko'tariladi. Kuy o'rtasida esa tinglovchiga dam berish maqsadida maxsus pauzalardan foydalaniladi. Bayt mazmuni shoir his tuyg'usini keskinlashtirgani sari ohang nolasi ham vazmin kayfiyat uyg'otishga qaratiladi. Orifxon Hotamovning bastakorlik ijodida Alisher Navoiy g'azallari alohida o'rin tutgan. Chunki so'z mulking sultoni baytlariga yashiringan falsafiy tafakkur ildizlari mumtoz musiqa san'atimizdagi o'ylashga majbur qiladigan kuylar bilan mutanosib edi. Navoiy g'azallarini aruz qoidalariga asosan ifodali

o'qisak, kuy o'z - o'zidan shakllanayotganga o'xshaydi. Orifxon Hotamov ham shoir nazmidagi ana shu fazilatdan unumli foydalanishga uringan. Xususan, «Bo'libtur» g'azaliga bir nazar tashlaylik,

Ko'zing ne balo qaro bo'libtur,

Kim jonga qaro balo bo'libtur.

Bu baytning birinchi misrasida «balo» so'zi haddan tashqari, g'ayri tabiiy ma'nosida qo'llangan bo'lib, ko'zning juda qoraligini ifodalagan. Ko'zning qoraligidan oldin kelgan «balo» so'zi mubolag'a darajasini anglatgan. Keyingi misrada esa «qaro» so'zi «balo»ning sifatlovchisiga aylangan va jonga kelgan balo bedavo xastalik ma'nosida qo'llangan. Adabiyotshunoslikda ikki so'zning o'rin almashib kelishi «tardu aks» san'ati deb ataladi. Qaro va balo so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lgani bilan birga ikki misrada o'rin almashib qo'llangani uchun zulqofiyatayn san'ati paydo bo'lgan. Orifxon Hotamovni ana shu san'atlar o'ziga maftun qilgan. Qalbida bu g'azalga atab kuy yaratish niyatini uyg'otgan. Alisher Navoiy baytidagi ishq dardi ustozimiz bastalagan kuy vositasida o'nlab - yuzlab musiqa muxlislariga yetib bordi.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida u haqda bo'xton ma'lumotlarni shohga yetkazib turuvchi josuslardan aziyat chekkan. Avvaliga Alisher yoshligidan Husayn Boyqaroga do'st bo'lgani uchun shoh Abu Saidga turli xabarlar borib turadi. Abu Said o'z taxtini Husayn Boyqarodan himoyalash maqsadida xufiya kuzatuvchilarni Navoiyni nazorat qilishga ham tayinlangan edi. Oqibatda yosh Alisherga otasidan qolgan meros musodara qilindi, Alisher esa Samarqandga jo'natildi.

Keyinchalik Husayn Boyqaro xalq qo'zg'oloniga aloqador bo'lgani uchun Navoiy tog'alaridan, qarindoshlaridan xavfsiraydi. Majiddinga bu vaziyat ma'qul tushadi. Yana Navoiyni kuzatish har bir harakatidan xabardor bo'lish uchun ayg'oqchi belgilanadi. Tuhmatlar uyushtiriladi va Navoiy 1487 yilda Astrobodga hokim qilib tayinlanishi niqobi ostida surgun qilinadi. Astrobodda esa shoir hayotiga suiqasd uyushtiriladi. Shuning uchun Alisher Navoiy g'azallarida josus, ayg'oqchi, xufiyalardan shikoyat qilish motivi ham o'rin olgan. Faqat shoir ularni ko'pincha ag'yor yoki raqib nomi bilan atagan:

Ko'rguzur ag'yor yuz tuhmat nihonni naylayin,

Yorkim so'rmay inonur, bu baloni naylayin.

E'tibor bergan bo'lsangiz so'z sultoni hayot muammolari bilan ishq iztiroblarini uyg'unlashtirishga erishgan. Xuddi shu mazmuni Orifxon Hotamov g'azalga bastalangan kuyda ham ifodalashga uringan. Xonanda bayt ijrosida o'ziga xos mimikadan foydalansa, ag'yor so'zi ham «g'anim», raqobatchi» ma'nosida ham «ayg'oqchi», «josus», «xufiya», «fitnachi» tushunchasini anglatadi. Keyingi baytlardagi «yor» so'zi esa ham ma'shuqa, ham shoh ma'nosini bildiradi. Shoirning asl maqsadi maqta'da ochiladi. So'nggi baytda qo'llangan «jalo» hijrat qilmoqchi, vatanni tark etish Navoiyning butun g'azali vatandan ayrilish, g'ariblik haqida ekanini va bu fojiga ag'yorning tuhmati sababligini aniq ko'rsatadi. Orifxon Hotamov kuyida «jalo» so'ziga alohida urg'u berilgani seziladi. Bizningcha, Orifxon Hotamov tabiatan Alisher Navoiyning sadoqatli muxlisi bo'lganu bastakorlik unga o'z muxlisligini amalda isbotlash imkonini yaratgan. Ustoz shoir g'azaliga kuy bastalangan, sozda chalgan va benazir ovozi bilan ijro etib nazm matniga yashiringan falsafiy ma'noni his qilishga, anglashga musiqa muxlisiga yuqtirishga harakat qilgan.

Ustozimizning bastakorlik faoliyatini faqat Alisher Navoiy nazmi bilan chegaralasaq, adolatdan bo'lmaydi. Chunki Orifxon Hotamov avval qayd etilganidek, Lutfiy ijodiga qolaversa, Bobur, Mashrab, Munis, Muqimiy, Amiriy, Habibiy, Chustiy, Saida Zunnunova she'rlariga ham murojaat qilgan. Xususan, xorazmlik mumtoz shoir Munisning «Sensiz» radifli g'azalini eslaylik:

Olam menga tamug'dir, ey gul uzor sensiz,

Solmas ko'ngulga fayzi sayri bahor sensiz.

Matla'da fikr ishq haq haqida borayotgani seziladi. Ey ma'shuqam, bu dunyo sensiz menga do'zaxdir. Bahor ayyomida seni o'ylamay, seni hayolimda eslamay sayr qilsam ko'nglimda fayz bo'lmaydi. Mening fayzim, hayotim, jannatim sen bilandir. Orifxon Hotamov kuyida «sensiz» so'ziga alohida urg'u beriladi. Bu so'z hazin ohangda talaffuz qilinadi, ammo bu miskinlikda (minor) hayot falsafasi mujassamlanadi.

Ko'rguzur ag'yor yuz tuhmat nihonni naylayin,

Yorkim so'rmay inonur, bu baloni naylayin.

E'tibor bergan bo'lsangiz so'z sultoni hayot muammolari bilan ishq iztiroblarini uyg'unlashtirishga erishgan. Xuddi shu mazmunni Orifxon Hotamov g'azalga bastalangan kuyda ham ifodalashga uringan. Xonanda bayt ijrosida o'ziga xos mimikadan foydalansa, ag'yor so'zi ham «g'anim», «raqobatchi» ma'nosida ham «ayg'oqchi», «josus», «xufiya», «fitnachi» tushunchasini anglatadi. Keyingi baytlardagi «yor» so'zi esa ham ma'shuqa, ham shoh ma'nosini bildiradi. Shoirning asl maqsadi maqta'da ochiladi. So'nggi baytda qo'llangan «jalo» hijrat qilmoqchi, vatanni tark etish Navoiyning butun g'azali vatandan ayrilish, g'ariblik haqida ekanini va bu fojiaga ag'yorning tuhmati sababligini aniq ko'rsatadi. Orifxon Hotamov kuyida «jalo» so'ziga alohida urg'u berilgani seziladi. Bizningcha, Orifxon Hotamov tabiatan Alisher Navoiyning sadoqatli muxlisi bo'lganu bastakorlik unga o'z muxlisligini amalda isbotlash imkonini yaratgan. Ustoz shoir g'azaliga kuy bastalangan, sozda chalgan va benazir ovozi bilan ijro etib nazm matniga yashiringan falsafiy ma'noni his qilishga, anglashga musiqa muxlisiga yuqtirishga harakat qilgan.

Ustozimizning bastakorlik faoliyatini faqat Alisher Navoiy nazmi bilan chegaralasaq, adolatdan bo'lmaydi. Chunki Orifxon Hotamov avval qayd etilganidek, Lutfiy ijodiga qolaversa, Bobur, Mashrab, Munis, Muqimiy, Amiriy, Habibiy, Chustiy, Saida Zunnunova she'rilariga ham murojaat qilgan. Xususan, xorazmlik mumtoz shoir Munisning «Sensiz» radifli g'azalini eslaylik:

Olam menga tamug'dir, ey gul uzor sensiz,

Solmas ko'ngulga fayzi sayri bahor sensiz.

Matla'da fikr ishq haq haqida borayotgani seziladi. Ey ma'shuqam, bu dunyo sensiz menga do'zaxdir. Bahor ayyomida seni o'ylamay, seni hayolimda eslamay sayr qilsam ko'nglimda fayz bo'lmaydi. Mening fayzim, hayotim, jannatim sen bilandir. Orifxon Hotamov kuyida «sensiz» so'ziga alohida urg'u beriladi. Bu so'z hazin ohangda talaffuz qilinadi, ammo bu miskinlikda (minor) hayot falsafasi mujassamlanadi.

usulida qabul qilish mumkin. Ashulaning shuhrat topishida avvalo Orifxon aka o'z hamnafasi Hakimjon Fayziev bilan maromiga yetgan ijroni ta'min etgan bo'lsalar, keyinchalik bu asar mashhur san'atkor O'zbekiston xalq artisti Murodjon Ahmedov ijrosida aytiladi. Undan so'ng O'zbekiston xalq hofizi Mahmud Tojiboev ham ijro etdi. Har bir ijrochining ashula parvozida o'z o'rni bor. Chunki xonanda o'zi kuylayotgan ashulaga qalbidagi tuyg'uni singdiradi. Tuyg'uni takrorlash mumkin bo'lmagani bois unda ijro san'atining muhri bosiladi va betakrorlik fazilati namoyon bo'ladi. Bastakor Orifxon Hotamovning esa hassos musiqa sohibi ekani ravshanlashadi.

Bunday holatlarga ko'plab misol keltirish mumkin.

Masalan, Saida Zunnunovaning «Yor o'tdimu?» g'azaliga bastalangan kuyni olaylik. Matla' shunday matndan iborat:

Gullar yuzida xanda, bu bog'dan yor o'tdimu?

Odatin qilmay kanda, yana bedor o'tdimu?

Mumtoz shoir Fuzuliyning baytida shunday deyilgan:

Ko'zi yoshlularing holin na bilsin mardumi g'ofil,

Kavokib sayrini shab to sahar bedor o'landan so'r.

Bizningcha, Saida opaning bayti mazmuni Fuzuliyniki bilan hamohang. Gullar nima uchun tabassum qilmoqda, kulmoqda? Chunki boqqa tabiat, gul, nafosat, go'zallik qadrini biladigan yor kunda odatini kanda qilmay bedor bo'lib sayrga chiqqan. (Demak, u «ko'zi yoshlularing holin» yaxshi his qiladi). G'azaldagi ana shu sirni vaziyat tasviri keyingi baytlarda rivojlanadi.

Har narsada nur, viqor, hatto tuproq baxtiyor,

Biri bir bosib beozor, ul beozor o'tdimu?

Gap shundaki, zar qadrini zargar biladi, deganlaridek, bog'ni bedor sayr qilayotgan oshiq dardli kimsa bo'lgani sabab uning tashrifidan butun atrofga fayz yog'iladi. Tabiatdagi hamma narsa: daraxtlar, gullar, nihollar, ko'kalamzor, tuproq o'zini baxtiyor his qiladi. Qadamini beozor bosishi bilan o'zining beozor inson ekani singishib ketadi. Eng muhimi, she'rdagi ana shu ko'tarinki va ayni paytda miskin ruh Orifxon Hotamov kuyida aniq ifodasini topgan. Kuy jozibasiga xonanda mahorati qo'shilganda, tinglovchi rostmana ajib his – tuyg'u hukmiga asir tushgandek sezadi o'zini.

O'zi didaktik mazmunga ega bo'lsa ham g'oyat go'zal ijro yo'li topilgani uchun bu asar mumtozlik maqomiga sazovor bo'ldi.

Zahriddin Muhammad Boburning «G'ofil o'lma», Salohiyning «Samimiy oshno», Haydar Yahyoevning «Har dam g'animatdur menga» va yana o'nlab she'rlarga ustoz yaratgan kuylar haqida ana shunday iliq fikrlar bildirish mumkin. Ayniqsa, Bobur bitgan «G'ofil o'lma», Cho'lpon qalamiga mansub «Qalandar ishq», Sodiro yozgan «Ko'zing» kabi go'zal nazm namunalarining Orifxon Hotamov e'tiborini o'ziga tortganligi bu she'rlarni xalqimiz oldida ko'proq tanilishiga, minglab qalblar to'ridan joy olishiga sabab bo'ldi.

Ustoz bastalagan kuylar mumtoz musiqa san'ati talablariga to'liq javob beradi. Shuning uchun bu asarlarni avval Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Rasul qori Mamadaliev kabi el muhabbatini qozongan hofizlar kuylagan bo'lsa, keyinchalik Saodat Qobulova, Murodjon Ahmedov, Ochilxon Otaxonov, Orif Alimaxsumov, Alijon Erkaev, Alijon Hasanov, Matluba Dadaboeva, Mahmud Yo'ldoshev, Mahmud Tojiboev, Soyib Niyozov, Mahbuba Hasanova, Abdunabi Ibrohimov, Erkin Ro'zimatov kabi o'nlab mashhur xonandalar ijro etdilar. Shubhasiz bu asarlar ko'plab avlod vakillariga ma'naviy meros sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamov esa noyob iqtidor egasi, hassos bastakor bo'lib, o'zbek millati ravnaqiga munosib hissasini qo'shish burchini bajaraveradi.

Savol va topshiriqlar

1. Orifxon Hotamov bastalagan ashulalarning qaysilari mashhur?
2. Orifxon Hotamov ustози Jo'raxon Sultonov bilan Navoiy g'azali bilan aytiladigan qaysi ashulani hamnafaslikda kuylagan?
3. Orifxon Hotamov qaysi ashulalarga musiqa bastalagan?
4. Orifxon Hotamov bastalagan ashulalarni kuylashni o'rganing.

III-BOB.

ORIFXON HOTAMOV BASTALAGAN ASHULALAR MATNINING TAHLILIDAN NAMUNALAR

Ustoz Orifxon Hotamov o'zi bastalagan ashulalarning irfoniy ma'nolarini chuqur bilar edi. "Irfoniy ma'no" deganda ashulalarning badiiy -falsafiy ma'nolari tushuniladi. Chunki u kishi yoshligida tengdoshlari qatorida islomiy tarbiya olgan edi. Shu sababli bu o'rinda ustoz bastalagan ashulalarning irfoniy talqinidan namunalar berib o'tamiz.

Qaro bo'lubtur.

Alisher Navoiy (1441-1501) g'azali bilan aytiladigan bu ashula matla'si quyidagicha:

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur

Kim, jong'a qaro balo bo'lubtur

Alisher Navoiy o'zining "Nasoim ul- muhabbat" asarida aytishicha, bu baytni u Samarqandda o'qigan vaqtida Chorsu bozorida bir darveshdan sotib olgan va keyingi baytlarni yaratib, asarga aylantirgan. "Ko'zning qoraligi" – Ishq vositasida anglaydigan ma'rifatning chuqurligi. Baytning ma'nosi: "Orif oshiqlar ma'rifatga yetish naqadar azob ekanligini bilishadi, lekin bu yo'ldan qaytmaydilar".

Majnu'i davoni dard qildi,

Dardingki, manga davo bo'lubtur

"Dard"—ishqning avj nuqtasi. Baytning ma'nosi: "Orif oshiqlar ma'rifatni anglash yo'lida mashaqqatni rohat, yengillikni razolat deb biladilar".

Ishq ichra aning fidosi yuz jon –

Har jonki senga fido bo'lubtur.

"Jon" – insonning mohiyati, u Mutloq Jonondan olingan va vaqti kelib asliga qaytib ketadi. Baytning ma'nosi: "Jonning o'z asliyatini tanitadigan ma'rifat uchun cheksiz jonlar fido bo'lsin".

Begona bo'lubtur Ul oshnodin

Begonag'a Ul oshno bo'lubtur.

“UI” – betimsol Yor, “oshno” sadoqatli oshiq, “begona” – butun olam. Baytning ma’nosi: “Orif oshiqlar ma’rifatga yetish azoblaridan cho‘chimasligi bilan sadoqatli hisoblanadi”.

To qildi yuzung havosi jonim,

Yuz sori anga havo bo‘lubtur.

“Yuz” – ma’rifat makoni, baytning ma’nosi: “Orif oshiqlar ma’rifat makoni tomon intilishi bilan yuksaklikka erishishadi”.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,

Ishq ahli aro navo bo‘lubtur.

“Oyat” – amal qilinishi va anglashinishi lozim bo‘lgan amallar. Baytning ma’nosi: “Bu banda ma’rifat navosini tuzdi, uni anglaganlar avj pardalarda albatta, uni kuylaydilar”.

Diqqat qilinsa, ashula ma’rifatdan saboq beradi. Shu sababli ustoz Orifxon aka unga musiqa bastalagan, mashhur ashulalardan biriga aylantirgan.

ORIFXON HOTAMOV YARATGAN MUSIQIY ASARLARGA SHARHLAR

Qoshi yosinmu deyin?

Bu ashula tik nafasli lirik bariton o'g'il bola ovozi litsey o'quvchilariga mo'ljallangan. Tanbur, dutor hamda g'ijjak cholg'ulari jo'rligida Orifxon aka ukasi Ahrorxon hamda o'g'illari Ismoilxon va Mahammadxon Hotamovlar bilan hamnafaslikda ijro etgan. Ashula lya pardasidan boshlanadi. Minor tonalligidan iborat. Kuyning o'rta qismining ikkinchi pog'onadan boshlangan muhayyari chorgoh ko'rinishi re major tonalligida kelsa xotima qismida esa lya eoliy tonalligiga qaytiladi. Musiqiy nazariy jihatdan bu "Og'ishma" deb ataladi. Ikkinchi va beshinchi pog'onalarda tasodifiy alteratsiya belgilari uchraydi. Jumladan, fa va do tovushlari kuy davomida do#, fa# bo'lib keladi. Asar diapazoni bir oktava hajmida bo'lsada ijrochidan kuchli ovoz salmoqli tembr talab qilinadi.

Bo'lmish ashulasi erkak ovozi o'quvchilariga mo'ljallangan. Orifxon ustози Jo'raxon Sultonov bilan birga Hotamov tanbur, dutor, skripka cholg'ulari jo'rligida aytganlar. Orifxon akani aytishlaricha bu ashulada skripkani o'zlari chalganlar. Ashula 4/4 murakkab o'lchovda bo'lib bir yarim oktava diapazonga ega. Do eoliy tonalligida yozilgan. Ashulada si bemol, mi bemol hamda lya bemol alteratsiya belgilari qo'llaniladi. O'rta va yuqori avjlari mavjud. Yuqori avjlarda kvarta sakrashlar uchraydi. Avjdan qaytishda tempni bir oz orqaga tortibroq ijro etilgan tovushlar bor. Musiqiy ifoda vositalari ya'ni liga, forshlag, legato kabi musiqiy bezaklardan foydalanilgan.

Bo'lubtur litsey va kollejlarning erkak ovozi o'quvchilariga hamda oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Tik nafasli ovozlari uchun bir yarim oktava hajmdagi diapazonga ega. Ikki avjli bo'lib: avj va yuqori avjdan iborat. Katta avjda kvartaga sakrash uchraydi. 3/4 o'lchamida mi frigiya tonalligida bastalangan. Bu asar hofiz Hakimjon Fayziev bilan hamnafaslikda yuqori mahorat bilan ijro etilgan. Ashula o'rtalarida fa, do tovushlari fa #, do # bo'lib kelishini kutamiz.

ORIFXON HOTAMOV YARATGAN MUSIQIY ASARLARGA SHARHLAR

Qoshi yosinmu deyin?

Bu ashula tik nafasli lirik bariton o'g'il bola ovozi litsey o'quvchilariga mo'ljallangan. Tanbur, dutor hamda g'ijjak cholg'ulari jo'rligida Orifxon aka ukasi Ahrorxon hamda o'g'illari Ismoilxon va Mahammadxon Hotamovlar bilan hamnafaslikda ijro etgan. Ashula lya pardasidan boshlanadi. Minor tonalligidan iborat. Kuyning o'rta qismining ikkinchi pog'onadan boshlangan muhayyari chorgoh ko'rinishi re major tonalligida kelsa xotima qismida esa lya eoliy tonalligiga qaytiladi. Musiqiy nazariy jihatdan bu "Og'ishma" deb ataladi. Ikkinchi va beshinchi pog'onalarda tasodifiy alteratsiya belgilari uchraydi. Jumladan, fa va do tovushlari kuy davomida do#, fa# bo'lib keladi. Asar diapazoni bir oktava hajmida bo'lsada ijrochidan kuchli ovoz salmoqli tembr talab qilinadi.

Bo'lmish ashulasi erkak ovozi o'quvchilariga mo'ljallangan. Orifxon ustози Jo'raxon Sultonov bilan birga Hotamov tanbur, dutor, skripka cholg'ulari jo'rligida aytganlar. Orifxon akani aytishlaricha bu ashulada skripkani o'zlari chalganlar. Ashula 4/4 murakkab o'lchovda bo'lib bir yarim oktava diapazonga ega. Do eoliy tonalligida yozilgan. Ashulada si bemol, mi bemol hamda lya bemol alteratsiya belgilari qo'llaniladi. O'rta va yuqori avjlari mavjud. Yuqori avjlarda kvarta sakrashlar uchraydi. Avjdan qaytishda tempni bir oz orqaga tortibroq ijro etilgan tovushlar bor. Musiqiy ifoda vositalari ya'ni liga, forshlag, legato kabi musiqiy bezaklardan foydalanilgan.

Bo'lubtur litsey va kollejlarning erkak ovozi o'quvchilariga hamda oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Tik nafasli ovozlari uchun bir yarim oktava hajmdagi diapazonga ega. Ikki avj bo'lib: avj va yuqori avjdan iborat. Katta avjda kvartaga sakrash uchraydi. 3/4 o'lchamida mi frigiya tonalligida bastalangan. Bu asar hofiz Hakimjon Fayziev bilan hamnafaslikda yuqori mahorat bilan ijro etilgan. Ashula o'rtalarida fa, do tovushlari fa #, do # bo'lib kelishini kutamiz.

Naylayin. Bu ashula yirik kuy tuzilmasiga ega bo'lgani bois erkak ovozinig oliy ta'lim talabalari ijrosi uchun tavsiya etamiz. Tanbur, dutor jo'rligida ijro etiladi. Asar diapazoni bir yarim oktavaga yaqin. 4/4 o'lcham re eoliy-frigiy ladida yozilgan. Si bemol alteratsiya belgisi mavjud. G'amgin holatda ijro etiladi. Yakka cholg'ularda ijro qilish mumkin.

Sensiz ashulasi kollej va litseyning yuqori kurslari hamda oliy ta'lim talabalari ijrosi uchun tavsiya etiladi. Hofiz bu ashulani Hakimjon Fayziev bilan hamnafaslikda tanbur, dutor jo'rligida ijro etgan. Tik nafasli erkak ovoz uchun mo'ljallangan. Asarning diapazoni bir oktavayu bir pardani tashkil etadi. Avjdan qaytishda "ashkim" so'zining tempi bir oz tortibroq aytiladi. Pauzalar paytda ijro tempga nisbatan ildamroq chalinadi. Do minor tonalligi yozilgan. Alteratsiya belgilari si bemol, mi bemol, lya bemol. 4/4 o'lchamda, melizm va qaytarish belgilardan unumli foydalanilgan.

Firoqingizdan. Bu asar kollej litsey o'quvchilari erkak ovozlari uchun mo'ljallangan. Tanbur, dutor jo'rligida O.Hotamov va Hakimjon Fayzievlar hamnafaslik bilan ijrosi yozib olingan. Asar shahdamlikni talab etadi. Sol eoliy-doriy, 1- oktava soldan 2-oktava si bemolgacha ovoz hajmini qamrab oladi. Melizm, dinamik belgilar, xalqona qochirimlar ishlatilgan.

Sensan sevarim (Hoh inon-hoh inonma)

Bu ashulani yumshoq tembrli erkak ovozig mos keladi. Tanbur-dutor hamda skripka jo'rligida O'zbekiston radiosida O.Hotamov va Hakimjon Fayzievlar hamnafaslik bilan ijrosi yozib olingan. (yakka tanbur jo'rligida Orifxon aka bir o'zi ijro etgan namunasi ham bor). Hamnafas bo'lib ham ijro etish mumkin. Ahamiyatlisi shundaki, ashula boshlanadigan 1- 2- 3- pardalar bir-biriga interval jihatidan yaqin. Ya'ni nim pardalar hosil etiladi. Natijada esa mahzun kuy ohangni yuzaga keltiradi. O'rganuvchida ushbu holatga chuqurroq yondoshish talab etiladi. Si frigiy-eoliy ladida. Diapazoni 1- oktava si dan 2- oktava do #gacha. 2/4 o'lchoyida, dinamik , qaytarish hamda bezatish belgilaridan foydalanilgan.

Aqli rasolarning ishi.

Bu ashulani litsey-kollej o'quvchilari va undan yuqori bosqich talabalari ijro etishlari mumkin. Bu ashula tanbur-dutor, g'ijjak

jo'rligida aytilgan. Kichik va o'rta tembrli erkak ovozlarga mos keladi. Sol frigiya Bayot yo'lidan foydalanilgan. Diapazoni 1-oktava soldan 2-oktava solgacha. Ya'ni bir oktava. 4/4 murakkab o'lchamda.

Bu oqshom. Ashula o'rta va oliy ta'lim talabalariga o'rganish uchun tavsiya etiladi. Tanbur-dutor jo'rligida O. Hotamov va H. Fayziev ijrosida yozib olingan. Ladi re minor (si bemol). Diapazoni 1-oktava lya dan 2-oktava si bemolgacha. 3/4 o'lchamda musiqiy bezaklaridan va xalqona qochirimlardan foydalanilgan.

Yor o'tdimu? Litsey va kollej, oliy ta'lim talabalari ijro etishi mumkin bu ashulani erkak ovozlari uchun moslashgan. Tanbur-dutor jo'rligida X.Fayziyev bilan hamnafaslikda 1959-yilda O'zbekiston radiosi tomonidan yozib olindi. Sol eoliy ladida. (si bemol, mi bemol) 4/4 murakkab o'lchamda. Diapazoni 1-oktava soldan 2-oktava si bemolgacha. Qaytarish belgilari va xalqona nola qochirimlardan foydalanilgan.

Har dam g'animatdur menga. Bu ashulani ta'limning yuqori bosqich talabalari ijro etishlari mumkin. Bu ashula tanbur, dator va g'ijjak jo'rligida Hakimjon Fayziev hamnafasligida ijro namunasidan yozib olingan. Lya ioniy ladida (fa #, do #, sol #) 4/4 murakkab o'lchamda. Yorqin musiqiy matnga ega. Diapazoni 1-oktava lya dan 2-oktava lya gacha. Ya'ni 1-oktavadan iborat Oddiy- sodda va ravon, yorqin ijro etiladi.

Orazing namoyon qil. Bu ashula ayol va erkak ovozlari uchun mo'ljallangan. Fahriddin Sodiqov rahbarligidagi sozandalar ansambli jo'rligida 1959 yil xonanda Alijon Hasanov ijrosida O'zbekiston radiosi tomonidan yozib olingan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahbuba Hasanova ijro etgan namunasi ham elga mashhur bo'lgan. Ta'lim yo'nalishidagi barcha bosqich o'quvchi va talabalar ijro etishlari mumkin. Sol eoliy ladida (si bemol, mi bemol). Diapazoni 1-oktava soldan 3-oktava do gacha. Oddiy, ravon yo'lda aytiladi.

Dog'man.

Ashula oliy ta'lim talabalari uchun tavsiya etiladi. H. Fayziev bilan hamnafaslikda tanbur-dutor va doira jo'rligida yozib olingan. Bayot yo'lidan foydalanilgan. Ladi do minor (si bemol, mi bemol, lya bemol) 4/4 o'lchamda diapazoni 1-oktava sol dan 3-oktava do

gacha. Sodda va ravon shahdam musiqiy matnga ega. Qaytarish belgilari forshlag, legatolardan, milliy qochirimlardan keng foydalanilgan.

Ko'zing.

Ashula o'rta va oliy ta'lim talabalar ijro etishlari mumkin. Bu asar tanbur- dutor jo'rligida Orifxon Hotamov ijrosida yozib olingan. Ladi do minor (si bemol, mi bemol, lya bemol) 4/4 o'lchamda diapazoni 1-oktava sol dan 2-oktava si bemolgacha. Mazkur ashulada ham Bayot yo'lidan foydalanilgan. Qaytarish belgilari, dinamik va kuyni bezatish belgilaridan foydalanilgan. Orifxon Hotamovning ushbu kuyini yakkaxon sifatida mohir sozanda va bastakor, Yunusqori Yusupov skripkada maromiga yetkazib ijro qilgan.

Bizni yaxshi mehmonlar.

Ashulani o'rta va oliy ta'lim talabalari uchun tavsiya etamiz. H. Fayziev bilan hamnafaslikda tanbur dutor, g'ijjak hamda doyra jo'rligida yozib olingan. Sol ioniy-ioliy ladi, 3/4:3/8 aralash o'lchamlarda bastalangan. Diapazoni 1- oktava sol dan 2- oktava si bemolgacha. Talqin usulidan foydalanilgan.

Qalandar ishq.

Bu ashulani o'rta va oliy ta'lim talabalari uchun tavsiya etiladi. Yu. Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli sozandalari jo'rligida O'zbekiston xalq hofizi Mahmud Yo'ldoshev ijrosida Respublika radiosi tomonidan yozib olingan. Ayol va erkak ovozlari ijro etishi mumkin. Lya minor ladida. 4/4 murakkab o'lchamida, tanavor usulida, ohista, diapazoni 1- oktava lyadan 2- oktava si gacha-bo'lgan bir oktavadan ortiqroq (desima) pardani tashkil etadi. Oddiy va ravon matnga ega.

G'ofil o'lma.

Bu ashulani o'rta va oliy ta'lim talabalari uchun tavsiya etamiz. 1982-87- yillarda O'zbekiston Radiosi huzuridagi maqom etnografik ansambli sozandalari jo'rligida ustoz san'atkor, xalq artisti Saodat Qobulova ijrosida yozib olingan. Kuchli musiqiy dramatik matnga ega. Do minor sol frigiyladida (si bemol, mi bemol, lya bemol) 2/4 oddiy o'lchamda. Diapazoni 1- oktava soldan 2- oktava si bemolgacha. Dinamik hamda bezatish belgilaridan foydalanilgan. Sodda va ravon milliy ruhga ega.

Bo'yingdan o'rgilay.

Mazkur ashulani o'rta va oliy ta'lim talabalar ijro etishni tavsiya etamiz. Bu asar tanbur- dutor, g'ijjak va doira jo'rligida Hakimjon Fayziev hamnafasligida ijro etgan namunadan yozib olingan. Ladi sol minor (si bemol, mi bemol) 4/4 murakkab o'lchamda. Diapazoni 1- oktava soldan 2- oktava lya tovushgacha qamrab oladi. Sodda va ravon an'anaviy qochirimlardan foydalanilgan. Yengil musiqiy matnga ega.

Marsiya.

Milliy ijrochilikda ustozlar vafotidan ta'sirlanib marsiya yozilish an'anasi mavjud. Orifxon Hotamov ham o'z ustozlari O'zbekiston xalq hofizi Jo'raxon Sultonov vafotidan so'ng ularni yod etib shoir Salohiy so'zi bilan marsiya bastalagan edilar. Kuchli dramatik musiqiy matnga ega bu yirik asarni oliy ta'lim talabalari uchun tavsiya etamiz. Bu ashulada ohang va dard pog'onama- pog'ona yuqorilab boradi. Og'ir judolik ruhida yozilgan bu asar Orifxon Hotamov ukasi Ahrorxon hamda farzandlari Ismoilxon, Muhammadxon Hotamovlar bilan hamnafaslikda tanbur dutor jo'rligida ijro etilgan. Do eoliy-ioniy ladida (si bemol, mi bemol, lya bemol) 4/4 murakkab o'lchamda. Diapazoni 1- oktava sidan 3- oktava do gacha. Milliy anduh, iztiroblar ko'p uchraydi.

Bilmas.

Bu ashulani yuqori bosqichdagi talabalar ijro etishi mumkin. Bu asar tanbur-dutor jo'rligida Orifxon Hotamov va Hakimjon Fayziev hamnafasligida yozib olingan. Do minor ladida (si bemol, mi bemol, lya bemol). O'lchami /38,3/4 o'lchamlari almashinib keladi. Diapazoni 1- oktava soldan 2- oktava lya gacha. Klassik xarakterga ega. Kuchli milliy ruhda ijro qilingan.

Yor kelur.

Bu ashula ayollar ijrosi uchun maxsus yozilgan. Ilk ijrochilari O'zbekiston xalq artisti Matluba Dadaboeva hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahbuba Hasanovalar. Tanbur –dutor, sato jo'rligida yozib olingan. Yengil lirik xarakterga ega, Ladi lya frigiyy (si bemol) 4/4 murakkab o'lchamda. Diapazoni 1-oktava lyadan 2-oktava si gacha.

Hush kechar umrim mening.

Ashula o'rta va oliy ta'lim talabalar ijro uchun mos keladi. Tanbur- dutor, g'ijjak va doira jo'rligida Ukasi Ahrorxon, farzandlari Ismoilxon Mahammatxon Hotamovlar ijrosida yozib olindi.

Ladi Lya major (fa #, do #, sol #) 4/4 murakkab o'lchamda. Diapazoni 1- oktava soldan 2- oktava lya gacha. Melizmlar, qaytarish belgilari, milliy qochirimlardan keng foydalanilgan.

Girya – musiqashunoslarimizning aytishiga qaraganda o'n ikki maqom tarkibida alohida maqom yoki sho'ba shaklida kelgan degan ma'lumotlar bor. Misol uchun Buxoro ijrochilik namoyondalari ham Giryani "namudi Girya" nomi bilan ba'zi bir qismlarida keladigan maqomotga oid bir yo'l ekanligini ta'kidlashadi. Ayniqsa ustozlarimiz Fattoxhon Mamadaliev, Orifxon Hotamov, Orif Alimaxsumov, Ma'rufho'ja Bahodirovlar ham giryani alohida maqom bo'lganligini ta'kidlaganliklarining guvohimiz. O'tgan asrning 50-60 yillarida ijro etilgan namunalari nazar soladigan bo'lsak, xalqimizni o'rtasida bu ashulaning ommalashuvi birinchi navbatda mohir kamonchi, bastakor, O'zbekiston xalq artisti G'ulomjon Hojiqulov Zavqiy g'azali bilan "Yuzingni ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding", deb boshlanuvchi g'azal asosida yuksak saviyada ijro etib, O'zbekiston radiosiga yozgandan so'ng, muxlislar qatori yoshlar ham Giryaga ishqiboz bo'ldilar. Undan keyin xonanda Umarjon Otaev va so'ng "Maqom" ansambli tomonidan 1959 yili Muqimiy bayti bilan aytiladigan "Qo'shilsin bu muxammaslar bazm ichra savti gulyora" deb, ko'rinishini kuyladilar. Bu avvaldan Farg'ona vodiysida ustozlar va ko'p ijrochilar tomonidan sevib kuylab kelingan edi. Buning sababi g'azalning sermazmun va ohangdorligi bilan belgilanadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1992-yili muhtaram ustozimiz O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamov giryani turkumlashtirish niyatida hali kuylanmagan Ogahiyning "Yolg'iz" radifli muxammasi bilan maqomchilar ansambliga o'rgatdi. Bu ashula o'z nomi bilan kuy davomida g'amginlik kayfiyati xukm suradi. Shu paytgacha ijro etilib kelingan giryalardan farqi avjga yana bir yarim parda avj qo'shilgani bilandir. Bu avjlarni O'zbekiston xalq hofizi Mahmud Yo'ldoshev hamda Xurshid Hasanov ijro etganlar. Ehtimol hofizlarimizning ovoz iqtidori va salohiyatini ko'rsatish maqsadidadir. Lya minor tonalligida, diapazoni 1-chi oktava lya dan 2-chi oktavasigacha, 3-chi oktava do ga qochirim qilinadi. Usul jihatidan murakkab 3/4, 3/8 o'lchamlari almashinib keladi. Butun yozuv mobaynida Orifxon aka bu yozuvni muvaffaqiyatli chiqishi uchun mas'uliyatni vujudi bilan his etgani hamda har bir pardasiga javobgarlikni yuksak talabda bo'lishini hohlaganini sezdim.

Girya I

Yetib jonimg'a gardun zulmidin yuz ming alam yolg'uz,
Alam chekmakda yetdim jong'a man zoru dajam yolg'uz,

"Doim sening g'aming bilan holim harobdur,
Kelmay qoshimg'a bir yo'la menga bu g'am nadur"...

Girya- II ni Qoriy muxammasi bilan boshlanuvchi Toshkent-Farg'onada mashhur she'ri bilan o'rgatdi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini yengil turlariga monand. 2/4 o'lchamda, lya minor tonalligida, diapazoni 1-chi oktavasidan 2-chi oktava lyagacha. Yo'l-yo'lakay yarim tongacha tushib yoki ko'tarilishlar uchrab turadi. (Do, fa pardalari.) Shuni ham ta'kidlash kerakki Orifxon aka Haziniyning

O o'ylasam mahbubima olamda janon o'xshamas,
Jannat ichra huri-g'irvon balki rizvon o'xshamas.

G'azalini tanavor doyra usulida Girya III va IV ni yaratgan edi. Ashulani dastlab O'zbekiston xalq artisti Matluba Dadaboeva O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahbuba Hasanova hamda O'zbekiston xalq hofizi Beknazar Do'smurodovlarga o'rgatdi. Bu ijrolar muvaffaqiyatli bo'ldi.

Girya IV ni esa Noqis muxammasi bilan ilgaridan Farg'ona vodiysi hamda Toshkentda ko'pdan beri aytib kelingan:

Ishqingda zor o'ldimu, g'amgin dimog'man,

Bemoru furqatingmanu, zohirda sog'man,

deb og'ir ufori usulida tugallovchi qismi sifatida aytiluvchi ashulasi o'rganilib ijro qilindi. Lya eoliy tonalligida, diapazoni 1-chi oktava lya dan, 3-chi oktava mi gacha. Murakkab usulga asoslangan bo'lib, o'lchami: 6/8 m tashkil etadi. Girya IV tugallangandan so'ng suporish ifodalangan bo'lib, 3/8, 3/4 o'lchamlari almashinib kelib Girya I ga o'tib asar tugallanadi. Bu asar turkum sifatida mukammallashtirilib, Girya I, II, III, IV deb respublika radiosi fondiga taqdim qilindi va shu tarzda Giryalari tizim shakliga keltirildi. Bu samarali ijodiy jarayon o'zbek milliy musiqasi hayotida katta voqea bo'ldi. Shundan beri bevosita maqomni o'rganishga intiladigan yoshlar orasida ma'lum va mashhurlikka erishdi, ommalashdi. Ular mana shu so'z bilan ijro etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Orifxon akaning qilgan ishi ahamiyatga molik, maqtovg'a sazavor ish sifatida musiqa tarixiga muhrlandi.

Aslida Giryaning ma'nosi "yig'i". Yig'i demakdir-bu albatta tasavvufiy ma'nolar bilan qorishib ketgan, ya'ni solikni ilohiy ishqdan alam chekib, Allohu taoloni ishq bilan yonadigan ahli tariqatlarni yig'isi nazarda tutilgan bu yerda. Mana misol uchun Orifxon aka bu narsani e'tiborga olib Ogahiyning

Yetib jonimg'a gardun zulmidin yuz ming alam
yolg'uz,

Alam chekmakda yetdim jong'a man zoru dajam
yolg'uz.

deb boshlanadigan muxammasini haqiqiy Girya deb tan olgan

Ana shu g'azalga Ogahiyning o'zi muxammas bog'lagan. Mana misol uchun g'azalni o'zi

Qo'yubman to taalluq mahbasi ichra qadam
yolg'uz,

Yetar har dam havodis shahnasidin ming sitam
yolg'uz.

ya'ni, dunyoga kelibmanki, Bu dunyoning chuqur, yopiq zindoniga
yolg'iz bog'lab qo'yilgandekman. Yanada aniqroq aytganda, bu
dunyo juda chuqur va qorong'u zindon. Undan o'z ixtiyoring bilan
chiqa olmaysan. Ammo na qilayki ana shu zindonga yolg'iz qadam
qo'yibman.

Yetar har dam havodis shahnasidin ming sitam yolg'uz.

Havodis degani hodisalar olami, ya'ni dunyoda sodir bo'lib
turgan hodisalardan, umuman, bu dunyodagi insonlarning hayoti
hodisalarsiz tasavvur qilinmaydi. Hodisalarni girdobida "shahna"
deb o'sha hodisalarni dastidan, har damda ming sitam chekaman.
Shu dunyoga kelganimga man afsus qilaman. Chunki Taqdiri
azalda, olam arvohta va Allohu- taoloni huzurida men bir ruh
sifatida xotirjam va halovatda yashayotgandim. Lekin bu yerga,
dunyoga jo'natilganimdan har damda yuz ming sitamlar
tortyapman. Bu dunyoni bog'liqligi, dunyoga bog'liq bo'lib
qolganligim, erkinlik yo'qligidan darakdir. Bu yerda ahli
tasavvufning yig'isini nazarda tutilib aytilgan, degan ma'noda
Orifxon Hotamov mana shu g'azalni tanlagan. Endi bu yerda men
